



**Tadqiqot.uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**№16**

2 июнь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
25-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
16-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-25**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
16-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2020**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 58б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

**3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

**6. Журналистика**

Тошбоева Барноҳон Одилжонова (Андижон давлат университети)

**7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

## **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

## **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

## **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **20.Ветеринария**

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## **22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## **24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## **25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Abdullayeva Nazokat Xidirboyevna</b> TUPROQ HAQIDA TUSHUNCHA.....	7
<b>2. Hamdamova Dilovar Nurullayevna, Toshbekov Nurbek Akhmadovich</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	9
<b>3. Beknazarova Xayriniso Tursunovna, Safarova Nargiza Gaybullayevna</b> SUV BEBANO NE' MAT.....	11
<b>4. Nomanova Feruza Adxamjonovna</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	14
<b>5. Abdullaeva Dilnoza Narzullaevna</b> ГЕОГРАФИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИШ МАСАЛАЛАРИ.....	16
<b>6. Rafiqova Odina Sobirjonovna</b> ONA TABIAT-CHEKMASIN AZIYAT.....	19
<b>7. Qurbonova Dilrabo Sharifjonovna</b> 5-SINF O'QUVCHILARIGA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR VA EKSKURSIYALARNING AHAMIYATI.....	21
<b>8. Abdurahimova Nozima</b> GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O'RNI.....	24
<b>9. Dadaboyeva Muyassarxon Mamajonovna</b> BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA IQTISODIY VAZIYAT UNING GEOGRAFIK JIHATLARI.....	26
<b>10. Ganjayeva Momojon Matchanovna</b> XORAZM VILOYATI AHOLISINING TABIIY HARAКATI.....	28
<b>11. Hayotova Gulmira Zavqiyevna</b> BUXORO - ISLOM OLAMI MADNIYATI POYTAXTI.....	31
<b>12. Madatova Nargiza Bo'riboyevna</b> GEOGRAFIYANI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN AYRIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR (INTERFAOL METODLAR) QO'LLANILISHI.....	33
<b>13. Matniyozova Karima Qadamboyevna</b> O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASINI O'RGANISHDA XARITALARNING O'RNI.....	35
<b>14. Matsayidova Sayyora Xudoyberganovna, Atabayeva Mavjuda Rustamovna</b> GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISHDA TOPISHMOQ, SHE'R VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHING AHAMIYATI.....	37
<b>15. Muxamedova Dilovar Islomovna</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN VA MOHIYATI.....	39
<b>16. Nurbuvayeva Shahzodaxon Rasuljonovna</b> GEOGRAFIYA SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR: MNEMOTEXNIKA USULLARIDAN FOYDALANISH.....	41
<b>17. Qosimova Mahfuza Pazliddinovna</b> GEOGRAFIYA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADAN FOYDALANISH USLUBLARI.....	44
<b>18. Rafiqova Faridaxon</b> GEOGRAFIYA TA'LIMI METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI TASNIFI.....	46
<b>19. Rahmatov Abdulholik Farxodovich</b> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ФЕРМЕРЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	48
<b>20. Xudoyberdiyeva Nargiza Arabboyevna</b> GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI.....	51
<b>21. Xudoyberdieva Xolida Raxmanovna</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	53
<b>22. Ўралов Бахтиёр Қулсоатович, Эшмуродова Фарида Хусановна</b> ТАБИИЙ ГЕОГРАФИК МУҲИТ ВА РЕСУРСЛАРГА ИНСОН ХЎЖАЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ТАЪСИРИ.....	55





## ГЕОГРАФИЯ

### TUPROQ HAQIDA TUSHUNCHA

**Abdullayeva Nazokat Xidirboyevna**

**Amudaryo tumani XTB ga qarashli 16-IDUM o'qituvchisi**

**Telefon:+ 998(94)458-12-88**

**Nazokat.Abdullayeva .88@mail.ru**

*Annotatsiya. Tuproqning hosil bo'lishi va ularning turlarga bo'linishi, o'rta osiyoda tarqalganligi haqida, „geologik tuzilishi va organik dunyosi „shu davrlarda tuproqlarning hosil bo'lishi haqida „har bir davrlarning mln yil davom etishi bayon etilgan*

*Kalit so'zlar.*

Yermiz bundan 3.5- mlrd yil oldin paydo bo'lgan ,Quyosh sistemasining paydo bo'lganiga 5 -mlrd yil bo'lgan ,tuproq qanday paydo bo'lgan degan fikriga Dekart va Kant Laplas gi patezalariga asoslansak tuproq mayda zarrachalardan va changlardan paydo bo'lganligini aytadi.Yer planetasi tuproqlarning paydo bo'lishi atrof -muhit va organik yani o'simlik va hayvonot dunyosining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'langan . Planetamizning geologic rivojlanish bosqichlarida iqlim bilan bir qatorda organik dunyo va tuproqlar o'zgarib borgan. Agar siz turli joylarda tuproq kesmasini mazkur kitobda berilgan rasmlarga solishtirib ko'rsangiz turli intaqaalarda ,hududlarda va hattoki, joylarda turli xil tusdagi tuproqlarni ko'rasiz . Qizig'I shundaki ,bir xil tabiiy sharoitga ega bo'lgan joylarda xar xil ko'rinishdagi tuproq lartarqalgan.Tuproqlarning bir xil iqlim va relef sharoitida turlicha bo'lishiga asosiy sabab insonlarning xo'jalik faoliyatidir.Chunki ilm va texnika bilan qurollangan inson tuproqni juda qisqa vaqt ichida o'zgartirib yuborishi mumkin.Tuproqlar turlarga ajratilayotganda ,tabiiy hosil bo'lgan tuproqlar alohida , kishilar faoliyati natijasida o'zgargan tuproqlar alohida olinadi.O'zbekiston yer qonunchiligining asosiy maqsadi - mamlakatimiz xalqi hayoti,faoliyati va faravonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanishni yo'ga qo'yish va uni davlat tamonidan muhofaza qilishdir.Tog' jinslarining nurashi va ona jinslarning hosil bo'lishi natijasidatuproqda xlorli ,sulfatli karbonatli va magniyli tuzlar yig'ilib qoladi.Ularning suvda tez eruvchanlari tuproqning pastki qatlamiga yoki pastqam joylarga yuvilib ketadi. Erimaydigan tuzlar tuproqda birikma holda saqlanib qoladi. Tez eruvchi tuzlar issiqiqlim sharoitida kapillyarlar orqali yer ostidan yer ustiga harakat qilsalar ,ko'p yog'inli va nam iqlim sharoitida pastga tamon harakat qiladilar.Shubois quruq iqlimli mintaqalarda sho'r tuproqlar ko'p tarqalgan bo'ladi.Tuproqlar tarkibi, asosan, uch qismdan iborat.1.Tuproqning ona jinsi- har bir joyda tarqalgan tog' jinslari.2. Tuproqning organic moddalari -o'simlik, hayvon qoldiqlari mikroorganizmlar,tuproq hashoratlari,chirindi.3.Tuproq eritmasi- O'simliklar uchun zarur moddalar erigan. O'rta osiyoda Cho'l tuproqlari- sur tusli qo'ng'ir tuproqlar,taqir va taqirli tuproqlar,cho'llarning qumli tuproqlari,o'tloq alluvial tuproqlar.Bo'z tuproqlar, Tog' o'rmon dasht tuproqlari, Baland tog' tuproqlari tarqalganSuv eroziyasi-Tuproqni vaqtincha oqar suvlar orqali yuvilishi va yemirilishidir.Vaho tuproqlari- chol va chala cho'l sharoitida sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlar.Deflyatsiya (lotin.Deflyato-o'chirish)- shamol eroziyasining fan tilida aytilishi.Ona jins-tuproq hosil qiluvchitog' jinsi. Taqir- pastqamliklarda hosil bo'lgan 'yuzasi qatqaloqlashgan ,ko'pincha sho'rlangan va o'ziga xos namlanish xarakteriga ega bo'lgan yer. Tuproq-Unimdorlik xususiyatiga ega bo'lgan murakkab tabiiy hosiladir.



Eon	Era	Davr	Davom etgan vaqt	Organik dunyo	TUPROQ
Kriptozo'y	Arxey	-	1 mlrd yil		
	Praterazo'y	-	2 mlrd yil		
		Kembriy	70 mln yil	Eng oddiy o'simliklar bakteriyalar, o'tlar paydo bo'lishi	Botqoqli yuqa va oddiy tuproqlarning paydo bo'lishi
	Poleozo'y 330 mln	Ordovik	60 mln yil		
		Silur	30 mln yil		
		Devon	70 mln	Poparatnik suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlarning pay	Oddiy ferralit uproqlarning paydo bo'lishi
	Toshko'mir	55 mln yil	Tez o'suvchi serbarg	Subtropik va tropik	

				daraxtlarning paydo bo'lishi	tuproqlarning rivojlanib borishi
Fanerazoy		Perm	45mln yil	Serbarg o'simliklar o'rmini igna kambarg o'simliklar qoplashi	Sahro va sho'r tuproqlarning yuzaga kelishi
	Mezazoy 173 mln	Trias	45mln yil	Qushlar va sutemizuvchilarning	Ferralit tuproqlarning ko'paya Borishi
		Yura	58 mln yil		
		Bo'r	70 mln yil	Yopiq urug'li o'simliklarning paydo bo'lishi	Turli xil o'simliklarning ko'paya borishi

	Kaynazoy 67 mln	Poleogen	41 mln yil	<ul style="list-style-type: none"> <li>➢ Soda sutemizuvchilarning qayta yuzaga kelishi</li> <li>➢ Hayvonat dunyosining shakillanishi</li> <li>➢ Odamlarning paydo bo'lishi</li> </ul>	Hozirgi ko'rinishdagi tuproqlarning paydo bo'lishi
		Neogen	24 mln yil		Qora va kashtan tuproqning paydo bo'lishi
		Antropagen	2 mln yil		Kishilar faoliyati ta'siridagi tuproqlarning paydo bo'lishi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Inson va Tuproq . Muallif: Asqar Nig'matov.

O'rta osiyo tabiiy geografiyasi. P. G'ulomov . H . Vahabov.





## GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Hamdamova Dilovar Nurullayevna**

**Вухого shahar 17- maktab**

**Телефон: +998914058392**

**Тошбеков Нурбек Аҳмадович**

**Вухого shahar 17- maktab**

**Телефон: +998936844512**

*Annotasiya: Geografiya fanlar ichida o'zining keng qamrovligi, qiziqarli va ommabopligi bilan ajralib turadi. Maqolada geografiya darslarida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi. Interfaol usulda o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilish talablari qo'yiladi.*

*Kalit so'zi: Geografiya, interfaol metodlar, pochta usuli, tinch okeani, shimoliy muz okeani, atlantika okeani.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda kundan-kunga ta'lim sohasida ko'plabyangiliklar bo'lmoqda. Geografiya darslarida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishda interfaol metodlari alohida o'rin tutadi. Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishliga tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlari mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;
- O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni "kashf qilishga" yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

- Interfaol metodlardan "Pochta usuli" o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari shakllanadi va chaqonlikka undaydi.

Bu fanlarda va barcha o'quv mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'qituvchi bir nechta (mavzuga mos) konvert olib, uning ustiga eng zarur bo'lgan asosiy yozuvlar yozib qo'yadi. va ular stol atrofiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan 6-sinf "Materiklar va okeanlar geografiyasi" darsligidagi "Dunyo okeani, uning qismlari" mavzusiga qo'llab ko'rishimiz mumkin. Pochta metodida o'qituvchi tamonidan to'rtta okean nomi konvert ustiga yoziladi. Endi shu okeanlarga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar kichik qog'ozchalarga yozib chiqiladi. Misol uchun: Mariana botig'i, 76 mln km<sup>2</sup>,



Puerto-Riko botig'i, 5527 m.

Ko'p qismi doimiy muz bilan qoplanib yotadi kabi ko'plab ma'lumotlarni yozishimiz mumkin va bu ma'lumotlarni stol ustiga yoyib qo'yamiz. Pochta metodni individualni, kichik guruhlarda va yalpi ommoviy o'qitishda ishlashimiz mumkin. ishlashda O'qituvchi yangi mavzuni boshlashdan avval sinf o'quvchilarni to'rt guruhga bo'ladi. Har bir guruhga bilim darajasi, dunyo qarashi turlicha bo'lgan o'quvchilar taqsimlanishi shart. O'qituvchi tamonidan guruhlar nomlanadi ya'ni:

1-guruh: Tinch okeani

2-guruh: Atlantika okeani

3-guruh: Hind okeani

4-guruh: Shimoliy muz okeani nomlari beriladi.

Har bir guruhdan ikkitadan o'quvchi chiqib, guruhi nomi yozilgan convert oladilar va konvertga guruhi qaysi okean nomi bilan atalgan bo'lsa usha okeanga tegishli ma'lumotlarni olib konvert ichiga joylashtirishlari kerak. Bu metodni asosiy qoidasi shuki: ma'lum vaqt beriladi, konvert ichiga faqat o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lumotni solishlari shart, ortiqcha ma'lumot solib qo'yilsa xato hisoblanadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib bajarsa va ko'p ma'lumot joylashtirgan bo'lsa usha guruh g'olib sanaladi va o'qituvchi tamonidan rag'batlantiriladi. Aqliy xujum" metodi - ushbu metodning asosiy vazifasi ma'lum vaqt orasida ko'proq g'oyalarni yig'ishdan iborat. Barcha g'oyalar katta qog'ozga yoki doskaga izohsiz yoziladi.

Geografiya o'qituvchisining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi, shubhasiz ta'lim tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Chinakam pedagogik mahoratli, nutq ustasi bo'lgan o'qituvchi rejada ko'rsatilgan darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Avvalo, uni fikrlari bilan to'lg'azib qiyomiga etkazadi, so'ng ko'rgazmali qurollar, misollar va topshiriqlar tayyorlaydi. Agar o'qituvchi bor kuchini materiallarning mazmunini qayta bayon qilishga qaratsa, darsiga nisbatan bolalarda qiziqish uyg'ota olmaydi. Ayonki, qiziqish yo'q joyda. Shubhasiz, eslab qolish bo'lmaydi. Demak, o'qituvchi dars materialini qanchalik yaxshi bilsa, uni interfaol usullar, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarga etkaza bilsa, natijada o'quvchilarning ham darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi va geografiya ta'limi samaradorligi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bahromov Q. Geografiya o'qitish metodikasi. Buxoro, 2007 y

2. Nazarov I.Q., Halimova G.S. Geografik kartalar-mulohaza va tavsiyalar. Toshkent: 2015 y



## SUV BEVAHO NE'MAT

**Beknazarova Xayriniso Tursunovna.**

**Navoiy viloyati Qiziltepa tumani**

**26-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**kimyo fani o'qituvchisi.**

**Telefon:(91) 250-94-99.**

**boymurodov-dilshod@mail.ru**

**Safarova Nargiza Gaybullayevna**

**Navoiy viloyati Qiziltepa tumani**

**26-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**biologiya fani o'qituvchisi.**

**Bugun chashma suvini qilsang agar xor.**

**Boshqa icholmassan bu suvdan zinhor.**

**Faxriddin Gurgoniy.**

*Annotatsiya: Chuchuk suv va uning amaliy ahamiyati. Chuchuk suvdan oqilona foydalanish va uni ifloslantiradigan omillar. Ichimlik suvining sarflanishi.*

*Kalit so'zlar. Suv, sho'r suv, chuhuk suv, suvdan oqilona foydalanish, ichimlik suvini sarflanishi.*

Yer shari yuzasining ? qismini okean, dengiz, ko'l, daryolar shaklida suv bilan qoplangan. Inson organizmining 70% suvdan tashkil topgan hech birimizga sir emas. Shu bois ham kishi ovqatsiz 30 kun hayot kechirishi mumkin, biroq, suvsiz bir hafta ham yashay olmaydi. Atmosferaga kislorod chiqaradigan o'simliklar olami esa obi hayotga ko'proq ehtiyojmand. Ibn Sino asarlarida keltirilgan inson salomatligi uchun eng katta omil chuchuk suv resursi, afsuski, tobora muammoga aylanib bormoqda. XX asr oxirida yuzaga kelgan bu tanqislikdan bugun butun dunyo aholisining 40% aziyat chekmoqda. Ayni shu yetishmovchilik sabab 1,2 mln kishi turli xastaliklarga chalinayotgani olimlar tomonidan isbotlab berildi. 2050 -yilga borib yer yuzi aholisining 75 % toza ichimlik suvi yetishmasligi bilan ziyat chekishi mumkin. Shu bois ham, maskur muammo dunyo miqyosiga ko'tarilib, uning oldini olishga qaratilgan ommaviy chora tadbirlar ko'rilmog'da. BMT tashabbusi bilan mavzuga oid bir qator loyihalarning e'lon qilingani, dunyoda har yilning 22-marti "Butun jahon suv kuni" sifatida nishonlanayotgani ana shu kurashning qat'iy odimlaridan biridir. Mamalakarimiz ham bunga javoban MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib 1993 yilning 6-mayida "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi milliy qonun qabul qildi.

Ichimlik suvini tejash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami keng, biroq, asosiy masala bu tadbirlarini biz qanchalik anglayotganimizda. Biz o'qituvchilar bu muammolar va ularning yechimlari to'g'risida har bir darslarimizda to'g'talib o'tmog'imiz lozim. Afsuski, dunyoni xavotirga solayotgan ichimlik suvi tanqisligi muammosi hali ko'pchiligimizning ongimizga to'la yetib kelgani yo'q. Shu sabab ham ayrim xonadonlarda suv jo'margining erta-yu-kech yopilmasligiga guvoh bo'lamiz. Vaholanki, bir daqiqa ochiq qolgan vodoprovod jo'mragidan 15 litr suv bekorga oqib tushadi. Shuningdek, kishilarning uylari yonida avtomoshinalarini toza suv bilan rosa bo'ktirashayotganini ham ko'p bora kuzatganmiz. Mahalla guzarlari yonida oqib o'tayotgan ariqlarga xas tashlayotganlar qancha. Suv hayot asosi, tiriklik manmaidir. Uni insoniyat zimmasidagi katta burch. Chunki kishilik jamiyatining bar davom bo'lishi aynan shu



resursning mavjudligiga bog'liqdir.

Yer sharidagi mavjud suv resurslari: sho'r suv va chuchuk suvga bo'linadi, ularning har ikkalasi ham sanoat uchun ahamiyatga ega. Sanoat asosan chuchuk suv bilan ishlashga moslashgan. Ma'lumotlarga ko'ra har yili kishi bosshiga o'rtacha 8000 litr suv ishlatiladi. Bu qatorga xo'jalik ehtiyojlari ham kiradi chuchuk suvning 10% miqdori uy ehtiyojlari va sanoat uchun sarflanadi.

1 kg qand oish uchun 400 l, 1 kg bug'doy olish uchun 1500 l. 1kg sintetik rezina olish uchun 2500 l 1 tonna po'lat ishlab chiqarish uchun 150 m<sup>3</sup> 1 tonna chit ishlab chiqarish uchun 1000 m<sup>3</sup> 1 tonna sun'iy tola ishlab chiqarish uchun 3000 m<sup>3</sup>. Mutaxasislarning aniq hisob kitoblariga qaraganda, shahar joylarda har bir kishi boshiga 18 chelak, ya'ni 200 litr suv to'g'ri kelishi ko'zda tutilgan. Biroq amalda, fuqarolar kuniga 360-480 litr suvni sarf qilishmoqda. Buni dunyo davlatlari misolida solishtiradigan bo'lsak. LONDON bir kishi kun davomida, 170 litr, PARIJda 160 litr, BRUSSELda 85 litr, O'ZBEKISTONda esa 370 litr suvni ishlatisharkan. Suv havzalarini (suv omborlari, daryolar, soylar, yer osti suvlari va boshqalar) ifloslantiradigan omillar asosan, quyidagilardan iborat.

1. Sanoat korxonalarining chiqindi suvlarini chuchuk suv oqayotgan soy va ular orqali daryolarga, daryolardan suv omborlariga oqizib yuborish.

2. Neftni haydaydigan va qayta ishlaydigan sanoat korxonalaridan neft mahsulotlarining oqar suvlarga tushishi, yer ostiga singishi va yer osti suvlari bilan sizot suvlarga, undan zovurlarga o'tishi.

3. Yoqilg'ini yoki ishlatilgan mashina moylarini ariqlarga to'kish, mashinani oqayotgan ariq va soy, daryo bo'yida yuvib oqavasini suvga oqizish. Suvga tushgan 1 kg neft yoki benzin 1000 m<sup>3</sup> daryo suvi yoki sizot suvini zaharlash uchun yetarli bo'ladi.

4. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan no'to'g'ri (keragidan ortiqcha) foydalanish, sug'orish shaxobchalarining yaxshi ishlamasligi yoki sug'orish agrotexnikasiga amal qilinmaganligi tufayli tuproq haydov qatlamining yuvilib zovurlarga va ariqlarga tushishi, qishloq zararkunandalariga qarshi kimyoviy kurash vositalaridan noto'g'ri foydalanilganligi tufayli ularning suvga tushishi.

5. Sanoat korxonalarida gaz (NO<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>) va qattiq moddalarning haddan ziyod miqdorda havoga tarqalishi, ularning havodagi namlik va yomg'ir suvi bilan yuvilib yer ustiga va suv havzalariga tushishi ("kislotali yomg'ir" deb atalgan ibora shundan kelib chiqqan).

6. Odamlarning ro'zg'orda hosil bo'ladigan hamda va ziyoratgoh joylarga to'plangan chiqindilarni soylar, daryolar va ko'llar suviga tashlashlari natijasida suv ifloslanadi.

Tabiiy suvni ifloslanishdan quyidagi usullar yordamida saqlash lozim.

1. Qazib olinadigan tabiat boyliklaridan to'liq foydalanish.

2. Ishlab chiqarish chiqindilarini suvga oqizmaslik ularni maxsus zarasizlantiradigan kanalizatsiyalarga oqirib, ulardan qayta foydalanish, chiqindisiz texnologiyani yo'lga qo'yish.

3. Neft va neftni qayta ishlash korxonalarida va neft saqlash omborlarida ularni suvga va tuproqqa tushishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Qishloq xo'jaligi o'g'itlarda to'g'ri foydalanish, tuproq holatini yaxshilash. Zaharli moddalarni suvga tushishiga yo'l qo'ymaslik.

5. Kimyo sanoati korxonalarida havoga chiqadigan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish, chang ushlagich moslamalardan keng foydalanish.

6. Energiya olishning ekologik toza manbalaridan quyosh, shamol energiyasida, okeanlar kinetik energiyasidan, yer osti issiq suvlari energiyasi, ekologik toza vodorod gazidan foydalanishni yo'lga qo'yish zarur.

7. Hamma joyda (uyda, jamoatchilik joylarida) chiqindini suvga tashlamaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar:



- 1."Maktabda kimyo" ma`naviy-ma`rifiy jurnal.5(29)-son 2011 yi,10(58)-son 2013
- 2."Anorganik kimyo" S.Teshaboyev,M.Nishonov.Toshkent."Oqituvchi"-2000yil.
- 3.Biologiya.Akademik litsey va kasb -hunar kollejlari o`quvchilari uchun darslik / Mualliflar jamoasi:A.Abdukarimov,K.N.Nishonboyev va boshqalar /.-T."Sharq",2013.- 288 b.





## GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Nomanova Feruza Adxamjonovna, Namangan viloyati,  
Uychi tumani 44-maktabning 2-toifali geografiya fani o'qituvchisi  
Tel: + 93 497 31 10/ nomanovaf@inbox.ru**

### *Annotasiya*

*Geografik o'yinlardan foydalanish har bir darsni qiziqarli bo'lishiga, o'quvchilarning faolligini oshirishga, mustaqil faoliyat olib borishiga, o'rgatishga hamda hayot bilan bog'lashga xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: geografiya, qobiliyat, oquvchi, o'yin, fikrlash, ta'lim, imkoniyat*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning geografik bilimlarini oshirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga geografiya fanining ahamiyati katta. Geografiya darslarida o'quvchilarning ongini shakllantirish, o'zi yashab turgan hudud va boshqa mamlakatlarning geografik o'rni, iqlimi, tabiiy sharoiti, foydali qazilmalarni bilishi, geografiyani o'qib - o'rganishdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. O'qituvchilarning vazifasi esa bulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishdir. Geografiya ta'limida didaktik materiallardan foydalanish usullari va yo'llarini tashkil qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Dars jarayonida didaktik materiallardan foydalanish va o'rganish ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi.

Geografiya ta'limida didaktik materiallaridan foydalanish usullari va yo'llarini o'rganish bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'quv jarayonini tarbiyaga kiritilgan turli xil bilim manbalarida yanada takomillashtirishdan iborat. Birinchidan, ularda fikrlash faoliyati jadallashadi, ikkinchidan, o'quvchilarda dunyo qarashlari shakllanadi, ushinchidan, xotirasi mustahkamlanadi, tafakkuri oshadi. Shuning bilan birga o'quvchilar har bir topshiriqni hal etish bilan bir nechta vazifalarni bajaradilar. Masalan, modellar yasash va rangli bo'rlardan foydalanish va tayyorlash usullari, applikatsiyalar, gipsdan qilinadigan ishlar, barel'ef, tog' modellarini yasash vahakozo. Didaktik materiallardan darsda beriladigan har bir topshiriq aqliy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aql bilan turli muammolarni hal etishdagi faoliyatni amalga oshirishda eng qulay asos bo'lib xizmat qiladi. Darslarda o'yinlardan foydalanish orqali insonning tabiat bilan, uni o'rab turgan muhit bilan aloqadorligini o'quvchilar ongiga yetkazish asosiy maqsadlari bo'lgan. Masalan, "Shaxtadan ko'mir qazib olish" o'yinini tashkil etilsa, sinf o'quvchilarining hammasi ishtirok etadilar. Ulardan biri ko'mir havzasida turadi, ikkinchisi ko'mirni yuqoriga uzatadi, uchinchi o'quvchi ko'tarish mashinasi oldida navbatchilik qiladi va hokazo. So'ng bir qator muammoli vaziyatlar hal etiladi: shaxta portlagandan tortib, portlash sabablarini aniqlash. O'quvchilarga tushunish va ishni bajarishda qiyinchilik bo'lsa, o'qituvchi yordam beradi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan kam harakat, ziddiyatli, lekin murakkabroq mazmunli o'yinlardan foydalaniladi. Masalan, ma'lum bir ko'chani kengaytirishga bag'ishlangan shahar hokimiyatining yig'ilishi. Bu o'yinda o'quvchilar quyidagi vazifalarni bajaradilar: shahar hokimi, bosh muxandis, tarix va o'lkashunoslik vakillari va hokazo. O'yin ishtirokchilarida aniq tasavvur bo'lishi uchun har bir vazifani bajaruvchiga tushuncha beriladi. Masalan, hokim shaharni hozirgi zamon qiyofasiga keltirish uchun qayg'uradi, bosh muhandis shahar ko'chalarida qatnov erkinligini ta'minlashga harakat qiladi, tarixiy yodgorliklarni himoya qilish jamiyatining raisi qadimiy binolarni saqlab qolishni o'ylaydi va hokazo. Yig'ilish qatnashchilari, ya'ni maxsus vazifaga berkitilmagan o'quvchilar kelishmovchiliklarni bartaraf qilish, har bir ma'sul xodimning fikrlarini



mulohaza qilib, murosaga keltirish uchun harakat qiladilar. Buning uchun o`quvchilarda shahar tarixiga oid ma`lumotlar, karta bo`lishi kerak. Bunday o`yinlardagi vaziyat bajaruvchisi aniq bo`lgan o`yinlardan qisman farq qiladi: o`yinni qiziqarli va qisman murakkablashtiruvchi ayrim qo`shimcha shartlar kiritiladi. O`quvchilar uchun darslarda har xil o`yinlardan foydalanish qiziqarli bo`ladi. Shuning uchun darslarning birida fikrlash - o`ylashga oid o`yin tashkil etilsa, keyingi darsda aniq belgilangan topshiriqlarni bajarishga oid o`yindan foydalanish mumkin. Quyida

"Georafik topishmoq" o`yiniga alohida to`xtalib o`tamiz. "Geografik topishmoq" aqliy o`yinini 5-6 sinf o`quvchilarda o`tkazilsa yaxshi natija beradi. Bunda har bir guruhga nom beriladi (masalan, Everest, Viktoriya, Atlantika, Nil va boshqa). Komandalar 3 ta shart bo`yicha bellashadilar. 1. Savol-javob 2. Karta bilan ishlash. 3. Geografik skanvord. Partalar aylana shaklida quyiladi. Guruhlarga o`quvchi muammoli savol bersa o`quvchilar bir daqiqqa davomida savolning javobini aytishlari zarur. G`olib bo`lgan guruhga ball quyiladi. O`yin oxirida eng ko`p ball to`plagan guruh o`quvchilari a`lo baho bilan taqdirlanadi. Mag`lub bo`lganlar esa jarima kartochkasi oladilar. Bu o`yindan maqsad shuki, o`quvchilar topshiriqqa har tomonlama yondashadilar, izlanadilar. Boshlovchi o`quvchi o`zining o`ng tomonidagi o`rtog`iga biror davlatning nomini aytadi. O`rtog`i darhol shu davlat joylashgan materikning nomini aytadi. Keyin bu bola ham bir davlatning nomini aytadi. Uning o`ng tomonidagi o`rtog`i shu davlat joylashgan materikni va yana davlatni aytishda davom etadi. Shu zaylda davra aylana beradi. Masalan: - Gretsiya? Yevrosiyo. Meksika? - Shimoliy Amerika. Armeniya. - Yevrosiyo, Chili. - Janubiy Amerika. - Agar birorta o`quvchi javobini darhol aytolmay qolsa, o`qituvchi o`ngacha sanaydi, shunda ham javob bo`lmasa, o`sha o`quvchi davradan chiqadi. Uning yonidagi javob berishda davom etadi. Davra birin - ketin kamayaveradi va eng ohirida qolgan o`quvchi g`olib deb topiladi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya fani va uning mavzulari xususiyatidan kelib chiqib, darslarda turli hil munozaralar orqali oydinlashtirilgan hamda bayon etilgan ma`lumotlar o`quvchilar ongida namoyon bo`ladi. Darslarni tashkil qilishda o`quvchining ijodiy izlanishi, ilg`or tajirabalarga suyanish va o`quvchilarning mustaqil ishlarini to`g`ri tashkil qilish ayniqsa ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darinskiy A.V. Metodika prepodavanie geografii. Moskva. Prosveshchenie 1991.
2. Qurbaniyazov R. Geografiya o`qitish metodikasi. Urganch. 2001 y.



## ГЕОГРАФИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН Фойдаланиш Кўникмаларини Шакллантиш Масалалари

**Абдуллаева Дилноза Нарзуллаевна**  
**Низомий номидаги ТДПУ докторанти**  
**Телефон: 998(97) 761-8517**  
**far-dil@inbox.uz**

*Аннотация. Мақолада география фани ўқитувчиларининг малака ошириш жараёнида ахборот коммуникацион технологиялари, хусусан интернет сайтларидан фойдаланиш кўникмаларини ошириш масалалари бўйича фикр юритилган.*

*Калит сўзлар: малака ошириш, ахборот коммуникация технологиялари, интернет сайтлари, таълимга оид сайтлар, география фанига оид сайтлар.*

Республикамизда ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш, таълим соҳасига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва инновацион лойиҳаларни жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида "□педагогларнинг масофадан малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизими самарадорлигини ошириш ва

ўқитиш мазмуни ва методларини янгилаш, баҳолаш тизимини қайта кўриб чиқиш" халқ таълими тизимининг асосий мақсад ва ривожланиш йўналишларидан бири этиб белгиланди.

Малака ошириш жараёнида тингловчилар мутахассислик йўналишида, хусусан, география фанидан назарий билим ва амалий кўникмаларни чуқурлаштириш ҳамда янгилаш, халқ таълимининг долзарб муаммолари, таълимни ташкил этишнинг янги тамойиллари, замонавий усуллари, Давлат таълим стандарти (ДТС) ва халқ таълими тизимидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан таништиришдан иборат.

География фани ўқитувчиларининг малака ошириш жараёнида география фанига доир интернет сайтлари билан таништириш ва улардандан фойдаланиш кўникмаларини ошириш уларнинг фанга доир янги маълумотлар билан қисқа муддатда танишишларига ёрдам беради. Чунки интернет сайтлари география таълими сифати ва самарадорлигини сезиларли даражада юқори босқичга олиб чиқишга ёрдам беради.

Бугунги кунда география фанидан малака ошираётган ўқитувчиларга қўйидаги таълимга ва география фанига оид сайтлар билан таништириш муҳим аҳамият касб этади.

Таълимга оид сайтлар

[www.xtv.uz](http://www.xtv.uz) ([www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)) - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги

[www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) - Ўзбекистон Республикаси Таълим маркази

[www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz) - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг ахборот портали

[www.xtt.uzedu.uz](http://www.xtt.uzedu.uz) - Халқ таълими вазирлигининг ягона давлат интерактив хизматлари портали

[www.xt.uzedu.uz](http://www.xt.uzedu.uz) - Мактаб таълим жараёнини бошқаришнинг автоматлаштирилган тизими

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълими



[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Ахборот-таълим портали

[www.edunet.uz](http://www.edunet.uz) - Ўзбекистоннинг ижодий ўқитувчилар тармоғи сайтлари мавжуд.

География фанига оид сайтлар:

<https://www.geo.uz/ru> - Ўзбекистон География жамияти

<https://www.Uznature.uz> - Ўзбекистон Республикаси табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси сайти.

<https://www.eco.uz> - Ўзбекистон экологик ҳаракати сайти

<https://yugk.uz> - Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси сайти

<http://www.kadastr.uz/ru> - Тошкент шаҳар ер ресурслари ва давлат кадастри бошқармаси сайти

<http://geoportal.uz/uz/pages> - Давергеокадастр қўмитасининг геопортали

<http://geografiya.uz> - география фани бўйича маълумотлар сайти

[Worldresources.org](http://Worldresources.org) - Жаҳон табиий ресурслар сайти

Ушбу сайтлардан ўқитувчилар нафақат география фанига оид, география фани туркумига кирувчи фанлар (экология, геология, топонимика, кадастр, геоморфология ва б) бўйича маълумотлар топиши ва таълим жараёнларига тадбиқ этиши мумкин бўлади.

Таълимга оид сайтлардаги берилган материаллари асосан қуйидагилардан иборат бўлади:

о дарслик;

о аудио ва видео дарсликлар;

о онлайн дарслар (Интернет саҳифа);

о электрон кутубхоналар;

о тестлар;

о мультимедиа - электрон дарсликлар ва бошқалар.

Малака ошириш жараёнида география фанига доир сайтлардан фойдаланиш орқали ўқитувчилар қуйидаги имкониятларга эга бўладилар

- интернет тармоғи ёрдамида география фанидан тўпланган тажриба ва услубларни бошқа касбдошлари билан алмашиш;

- бир вақтнинг ўзида турли тоифадаги таълим олувчилар учун ҳар хил ўқитиш услубларини амалга ошириш орқали ўқув жараёнини индивидуаллаштириш;

- ушбу сайтлардаги назорат топшириқларидан машқ сифатида фойдаланиш натижасида ўқитувчиларда фан бўйича эгалланган билимларни кўникма ва малака даражасига етказиш;

- қўлда бажариладиган ишларни камайтириш ҳисобидан таълим олувчиларга яқка тартибда ишлаш ва ўз қобилиятларини намоён қилиш имкониятини яратиш;

- география фанига оид инновациялар, фан янгиликларидан хабардор бўлиш;

- фанни ўқитиш методикасига оид хориж тажрибалари билан танишиш ва ўзаро тажрибалар алмашиш;

- география фанини ўқитишда фойдаланиладиган воситаларнинг электрон кўринишлари билан танишиш ва фойдаланиш (электрон хариталар, электрон дарсликлар, электрон дарслар, "Google eart Win" ва шу каби дастурлар ва б);

- таълим олувчиларни мустақил билим олиш жараёнини самарали ташкил этиш каби имкониятларни яратади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, таълим тизимининг бугунги энг асосий вазифаларидан бири таълим олувчиларни кун сайин ошиб бораётган ахборот таълим муҳити шароитида мустақил равишда фаолият кўрсата олиш, ахборот ресурсларидан самарали фойдаланиш кўникмаларини оширишдан иборатдир.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.04.2019-йилдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712 сонли Фармони
2. Ахмедов А, Тайлақов Н. "Информатика".Т.: Ўзбекистон 2008 йил
3. Низомий номидаги ТДПУ хузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази, Таълимда замонавий ахборот-коммуникация технологиялари модули бўйича ўқув-услугий мажмуа,(3.1 модул) Тошкент-2018.





## ОНА ТАБИАТ-СНЕКМАСИН АЗИЯТ

**Rafiqova Odina Sobirjonovna**

**Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 37-maktab geografiya o'ituvchisi  
+998(93) 2164737**

*Anotatsiya Ushbu maqolada insonlarni atrof-muhitga bo'lgan munosabati va uning salbiy oqibatlarini yoritiladi. Agarda kelajakda ana shunday noxush hodisalar ortib borsa, insonning hayotiga xavf tug'ilishi mumkin. Sayyoramiz zarar ko'rayotgan joylarni tiklash va boshqa tabiatni muhofaza qilish ishlarida har bir inson faol ishtirok etishi kerak. Tabiat va uning boyliklari, yodgorliklarini muhofaza qilishda o'quvchilar ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari juda muhimdir. Ayniqsa, yosh avlodga bu haqda yanada ko'proq uqtirib borish zarurdir.*

*Kalit so'zlar ekologiya, qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, milliy bog', biosfera rezervati, qizil kitob.*

Inson yer yuzida paydo bo'lgandan boshlab tabiat bilan bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Kishilik jamiyating vujudga kelishi bilan insonning tabiiy resurslardan foydalanishi ortib ketdi. Tabiat hayot uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmonlar va boshqa ne'matlar manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Atrof-muhitni, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish hozirgi davrda ekologik muammolarning eng muhim masalalaridan biri bo'lib qoldi. Chunki kishilar tabiatdan keragidan ortiq foydalanib, uning tabiiy manzarasini o'zgartirib, asrlar davomida vujudga kelgan jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada o'simlik va hayvon turlarining yo'qolish xavfi tug'ilmoqda. Bu esa inson uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tabiat mo'jizalarga boy chinor, sada, archazor, lolazor qadimdan saqlanib kelayotgan g'orlar, ajoyib sharsharalar, zilol suvli buloqlar ularning bari boyligimizdir. Ushbu boyliklarni saqlash har birimizning burchimizdir. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur Samarqandda 24 ta bog' yaratgan ekan. Tabiat yodgorliklari tabiatning o'tmishi va unda sodir bo'lgan charayonlar haqida guvohlik beradi. O'zbekiston dorivor o'simlik va mevalar bilan insonlarni ta'minlovchi maskan hisoblanadi. Sanoatning rivojlanishi natijasida inson o'zining tobora ortib boryotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat va uning resurslaridan yanada ko'proq foydalanilmoqda. Tabiatdan nooqilona foydalanish uning ifloslanishini keltirib chiqardi. Orol dengizini qurishi, atmosfera, suv hamda tuproqning ifloslanishi kabi noxush hodisalar yuz berdi. Agarda kelajakda bunday hodisalar ortib borsa inson uchun katta xavf solishi mumkin. Bunday xavfni oldini olish uchun barcha inson harakat qilishi mas'uliyatli bo'lishi kerak. Insoniyatning ekologik tarbiyasini kuchaytirish kerak.

Tabiatning chiroyiga chiroy, boyligiga boylik qo'shish uchun o'simlik va hayvonot dunyosini ko'paytirish noyob tabiat go'shalari va yodgorliklarini saqlash, sayyoramiz zarar ko'rayotgan joylarni tiklash va boshqa tabiatni muhofaza qilish ishlarida har bir inson faol ishtirok etishi kerak. Tabiat va uning boyliklarini, yodgorliklarini muhofaza qilishda o'quvchilar o'zlarining ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari zarur.

O'zbekiston tabiatining ko'rkamligi uning hududida nodir tabiat go'shalarini tabiiy holicha saqlab qolisga bog'liq. O'zbekistonda turi, soni kamayib borayotgan noyob o'simlik va hayvonlarni hisobga oluvchi ikki jildli "O'zbekiston Qizil kitobi" nashr etilgan. Qizil rang xavf-xatar belgisi ekanligini yaxshi bilasiz.

Ommaviy axborot vositalarida qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, milliy bog'lar, Biosfera rezervatlari haqida ko'proq chiqishlar berish kerak. Ona tabiatni muhofaza qilishga doir badiiy filmlarni ko'proq tayyorlash kerak. O'quvchilarni tabiat quchog'iga sayohatga chiqishlarini ta'minlash kerak. Uni asrab-avaylashga o'rgatish kerak. Bu haqida Hadislarda



ham aytilgan.

Zero, ona-tabiat chekmasin aziyat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geografiya, 7-sinf uchun darslik, Toshkent -2017 yil.
2. "Inson va tabiat", Toshkent -2010 yil.
3. "Hayvonot olami ensiklopediyasi", Toshkent -2017 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-2014 yil.
5. Internet ma'lumotlari.



## 5-SINF O'QUVCHILARIGA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR VA EKSORSIYALARNING AHAMIYATI

**Qurbonova Dilrabo Sharifjonovna**  
**Namangan viloyati Chust tumani**  
**9-maktab 1-toifali Geografiya fani o'qituvchisi**  
**Telefon:+998(97)3701405**

*Anotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodga geografiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish usullari, geografik maydoncha yaratish va undan foydalanish, geografik ekskursiyalar uyushtirish va u orqali o'quvchilarda fanga, tabiatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish kabi masalalar aks ettirilgan.*

*Kalit so'zlar: amaliy ishlar, joy plani, xarita, geografik maydoncha, geografik asboblari, o'quvchilar, geografik ekskursiya.*

O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda asoslangan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani fan predmetlarini o'qitishning ilk davrlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Hususan Geografiya fanining 5- sinfdan boshlab o'qitilishini hisobga olgan holda o'quvchilarda boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda tabiat, atrof-muhit haqidagi ilk tushunchalar shakllanadi albatta. Geografiya boshlang'ich kursida esa shu tushunchalarning ilmiy asoslanishi, ya'ni geografik voqea-hodisalarning sabablari, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar tog'risida bilimlar to'plashga imkon beradi. Bu jihatdan o'quvchilarning shaxsiy tajribalarga tayanib fanni o'rganishlari samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra tabiiy geografiya darslarida amaliy ishlar, suhbatlar, tabiat qo'yniga ekskursiyalar, ayniqsa, mustaqil ishlardan ko'proq foydalanish kerak. Bunda tabiat hodisalari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash amaliy ishlarning tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Tabiat bilan to'g'ri tashkil qilingan muloqot o'quvchilarda tabiat go'zalliklarini his etishni shakllantiradi, ularda o'zi bajargan ishni baholay olish, atrofda o'simlik va hayvonlarga nisbatan mas'uliyatni his etish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tabiat hodisalari bilan tanishtirish ekskursiyalarda, o'quv sayrlarida, amaliy ishlarda kuzatishlar o'tkazish asosida amalga oshiriladi.

5-sinf tabiiy geografiya boshlang'ich kursida birinchi amaliy mashg'ulot joy plani tuzish bilan bog'liq. Joy planini sinf xonasida o'tirgan holatda ham ishlash mumkin. Lekin o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish darajasini ham hisobga olish zarur. O'quvchilar voqea- hodisaning haqiqiy ko'rinishini ko'zlari bilan ko'rgandagina u haqida to'liq tushunchaga ega bo'la oladi. Bunda o'quvchilar haqiqiy joyga chiqqan holda predmetlarning ko'rinishi, ularning ufq tomonlariga nisbatan joylashuvi, azimuti va masshtabini aniq xisob- kitoblarga asoslangan xolda qog'ozga tushira oladilar. Albatta bu ishlarni bajarishda o'qituvchi ularni to'g'ri yo'naltira olishi muhimdir. Hususan, ufq tomonlarini aniqlashda Quyosh chiqish va botish tomonlarini e'tiborga olish, daraxtlar va o'simliklarning tuzilishiga e'tibor qaratish kabi turli elementlarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ko'pincha bu ishlar maktab hovlisida bajariladi. Amaliy mashg'ulotni bajarishdan oldin o'quvchilar xarita va plandagi shartli belgilarni o'rganadilar, kompasdan foydalanib azimutlarni aniqlash yo'li bilan plan olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar nisbiy va mutlaq balandliklarni, xaritalarda gorizontallar yordamida tepaliklarning balandliklarini aniqlash kabi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Darslikdagi ko'pgina materiallar o'quvchi yashab turgan muhitda uchramasligi mumkin. Masalan, tog'lar, tekisliklar, dengiz va okeanlar, o'rmonlar. Bunday obyektlarni o'rganish ko'rgazmali qurollardan foydalanish bilan, ya'ni ko'rgazmali usullar yordamida amalga oshiriladi.



O'quvchi ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmagan voqea- hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalar kinofilmlar, turli xil rasmlar va xaritalar orqali shakllantiriladi.

Bundan tashqari o'quvchilar doimiy ravishda ob-havo va har xil kundalik kuzatishlarga ham jalb qilinishi lozim. Ular bu kuzatishlarda Quyoshning ufqdan balandligini, har kungi ob-havoning eng muhim o'zgarishlarini bevosita tahlil qilib boradilar va to'plangan materiallardan darslarda ham foydalanadilar. Ob-havoni kuzatish orqaligina o'quvchilarda iqlim, ob-havo, havo massalari tushunchalarini shakllantirish mumkin. Amaliy mashg'ulotdan oldin o'quvchilar termometr, barometr, flyuger, anemometr kabi asboblardan bilan tanishadilar. Ular bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Bunda geografiya maydonchasini to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati kattadir. Imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, maktablarda geografiya maydonchalarini qo'l kuchi yordamida tashkil qilish mumkin. Masalan, mahsus qutichaga termometr joylashtirish, oddiy metal buyumlardan flyuger yasash, yoki yog'in miqdorini aniqlash uchun idish tashkil qilish kabi ishlar ko'p mehnat talab etmaydi. Geografiya maydonchasining yana bir yaxshi tomoni shundaki, u o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatib, kelajakda ilmiy ishlar bilan shug'ullanishlariga zamin hozirlaydi.

Barcha fanlarni o'rganishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Hususan geografiya boshlang'ich kursida matematika, biologiya, fizika va boshqa fanlarning integratsiyalashuvi tabiiydir. Havo harorati, havo bosimi, havoning namligiga doir amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar geografik bilimlar bilan bir qatorda matematika elementlarini puxta egallagan bo'lishlari lozim. Lekin masalani mohiyatini anglab olishlari uchun turli chimalar asosida tushuntirilishi har qanday o'quvchida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi. Bundan ko'rinib tutibdiki, geografiya fani o'qituvchisi rasm ishlay olish, doskada chizma chizish kabi ishlarni ham amalga oshira olishi lozim va shu bilan birgalikda matematika fanini ham bilishi mavzuni yoritishda juda katta yordam beradi. Masalan yillik yoki kunlik o'rta haroratni aniqlash uchun olingan kutishlar natijalari qo'shib, ularning o'rta arifmetigini hisoblash, yillik yoki kunlik harorat amplitudasini hisoblash uchun son nuri chizish va shu asosida natijani hisoblashni o'rgatish kabilar matematika fani bilan integratsiyalashuvni talab qiladi. Havoning namligini aniqlashga doir amaliy mashg'ulotlarda bir qator tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki 5-sinf o'quvchilari hali bu kabi murakkab misollarni matematika darslarida o'rganishmaydi. Demak bu amaliy ishni tashkil etishda o'qituvchidan katta mahorat talab etiladi va ko'zlangan natijaga erishish uchun bilimlarni ishga solishga to'g'ri keladi. Maxsus havo namligini o'lchovchi asbob ham geografiya maydonchasiga o'rnatiladi. Bu asbob soch tolasi yordamida namlikni aniqlashga asoslangan.

Bahor fasli geografiya fanidan o'quv sayohatlarini amalga oshirish uchun qulay vaqtdir. Ekskursiya jonli va jonsiz tabiatning rivojlanishi va ularda ona tabiatga nisbatan muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Shu o'rinda ular bahorgi ekskursiyalar vaqtida tabiiy geografik voqea, hodisa va jarayonlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi istiqbollari ta'sirini bilishi bilan birga, shuningdek, kuzatishlarni ham olib borishni o'rganishlari lozim.

Shunday qilib, amaliy faoliyat va ekskursiyalar o'quvchilarda mehnatga muhabbatni, intizomni, maqsadga erishishda shijoatni, jamoada ishlash, uquv va boshqa foydali sifatlarni tarbiyalaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. 5- Geografiya darsligi. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi.- Toshkent-Yangiyo'l poligraf servis-2011.
2. Grigonyans A.G, Malkina L.G. Atrof tabiat bilan tanishtirish (1-qism).-T., 1987.
3. Haydarov Q.H. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish metodikasidan laborotoriya mashg'ulotlari. T., 1990.





## GOEGRAFIYA FANINI O'QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O'RNI.

**Namangan viloyati Norin tumani**  
**16-maktab geografiya fani o'qituvchisi**  
**Abdurahimova Nozima**  
**Telefon: 976204686**  
**Nozimaxon@gmail.uz**

*ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada geografiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuv hamda fanni o'quvchilarga tushuntirishda geografik xaritalarni o'rni va ahamiyati haqida fikrlar ilgari surilgan.*

*TAYANCH SO'ZLAR: Geografiya, materiya, metod, kartografik usul, geografik xarita, geografik atlas.*

Ma'lumki biror hudud, maydon (materik, qit'a, mamlakat, provinsiya va h.k) haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishda geografik xaritalarning ro'li beqiyosdir. Chunki, aynan ular orqali voqea-hodisalarning hududiy taqsimlanishini tushunarli ravishda ko'rsatib beriladi. Ta'kidlash joizki, geografiya fanlarini o'qitishda kartografik asarlardan foydalanish metodik muammolardan sanaladi. Bugungi kunda karta va boshqa kartografik manbalar vositasida maktab o'quvchisida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish davr talabiga aylandi. Bunday sharoitda o'quv predmetining vazifalari o'zgarib, uning mazmunni yoritishda qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz "

Geografik bilimlarni shakllantirishda kartografik asarlarning mukammal turi bo'lgan atalaslarning ahamiyati katta. Chunki, atalalar darsliklar mazmunini to'ldirishga hamda voqeylikni ko'rgazmali o'rgatishga asoslangan va o'quvchilarda soxaviy bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirishda yaxlit tasavvur shakllantiradi. SHuning uchun, geografiyani o'qitishda atalalar bilan ta'minlanishi Geografiya kurslarini o'qitishda kartografik asarlardan foydalanish o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik xayot bilan bog'lash va tasavvur qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda atrof-muxitda ruy berayotgan hodisalar borasidagi geografik tasavvur va tushunchalar oson shakllanadi va ulardan foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra ta'lim muasasalari uchun mo'ljallangan geografik atlaslardan foydalanish masalalari va bu boradagi muammolar anchagina.

Ta'lim jarayonida kartografik usulni qo'llash o'quvchilarning geografik tasavvurlari doirasining kengayishi, mavzularning ular uchun tushunarli bulishi xamda ular tomonidan puxta o'zlashtirishiga yordam beradi. Binobarin, xududda tog va tekislik, daryo va ko'l, cho'l va urmon bir-biri bilan yonma-yon joylashgan bo'lib, o'quv bilish jarayonida jonli mushoxadadan abstrakt tafakkurga o'tilishi uchun qo'lay sharoit yuzaga keladi.

Dars jarayonida geografik atlaslardan foydalanish quyidagi xolatlarining ruy berishini ta'minlaydi. Birinchidan, ko'rgazma vositalar o'quvchilarda geografiya darslariga bo'lgan qizikishni kuchaytiradi. Ikkinchidan, ular tomonidan geografik tushunchalarning chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi. Uchinchidan, o'quvchilarning tafakkuri rivojlanadi, natijada o'zlashtirilgan bilim faoliyat ko'nikmasiga aylanadi.

Geografiya fanini o'rganishni geografik karta va atlassiz tasavvur qilib bo'lmaganligi uchun ulardan foydalanish xususiyatlari ham o'ziga xos xisoblanadi. Kartografik asarlar ichida o'quv atlalari alohida o'rin egallaydi. Umum ta'lim maktablari o'quv atlalari 2 xil



bo'ladi: o'rta maktablarda geografiya fanini o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv atlaslari va o'quv-o'lkashunoslik atlaslari. Mazkur atlaslar O'zbekiston Respublikasi yer resurslari va davlat kadastri davlat qo'mitasi huzuridagi "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi tomonidan darsliklar mazmunidan kelib chiqib chop etiladi.

Maktab geografiyasi atlaslarida dastlab umumgeografik kartalardan foydalaniladi, kartaga bo'lgan ko'nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so'ng mavzuli kartalardan iborat atlaslardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Natijada ma'lum hududlar (materik, davlat va h.k. lar) ning geografik o'rnigina emas, balki ularda sodir bo'layotgan tabiiy va iqtisodiy geografik o'zgarishlarni, ularning xususiyatlarini ham bilib olish imkoniyati tug'iladi. Chunki, yuqori sinflar atlaslarida mazkur jarayonlarni o'z ichiga olgan mavzuli kartalar to'plami shakllantiriladi. Qolaversa atlaslar o'rta va yuqori sinf atlaslariga bo'linib, mazmuni va jihozlanishi bo'yicha ham farq qiladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, kartografik asakrlar bilan ishlash voqea-hodisalar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish, ularni yodda saqlash, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash o'zaro bog'liqlikni o'rganish va shu asosda xulosa chiqarish yo'llarini o'rgatadi. Ularda maktabda o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil o'rganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bog'lashda, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.G'ulomov P va boshq.Geografiya: O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O'zbekiston tabiiy geografiyasi: 7 sinf uchun darslik -T.: O'qituvchi, 2014

2.G'ulomov P., Qurbonniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi: 5 sinf uchun darslik - Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashr. -T. 2005

3.Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi atlas. 6-sinf // -T.: "Kartografiya"ilmiy ishlab chiqarish davlat korxonasi, 2017.-41 b.



## BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA IQTISODIY VAZIYAT UNING GEOGRAFIK JIHATLARI

**Dadaboyeva Muyassarxon Mamajonovna**  
**Namangan viloyati Kosonsoy tumani**  
**31-son maktab geografiya fani o'qituvchisi**  
**dadaboyevam1982@gmail.com +998913671782**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy vaziyat, savdo aloqalari va geografik kashfiyotlarning jahon taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: kashfiyotlar davri, savdo yo'llari, Xitoy qimmatbaho buyumlari, Marko Polo.*

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb - XV asrning o'rtasi yoki oxiridan XVII - asr o'rtalarigacha bo'lgan davrlar aytiladi. Buyuk deb atalishga loyiq geografik kashfiyotlar har doim ham bo'lgan, lekin hech qaysi davr Buyuk geografik kashfiyotlar davridagidek dunyo taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan kashfiyotlarga boy bo'lmagan.

Ushbu davrga qadar Yevropaliklarga Yevropa, Osiyo va Afrikaning bir qismigina ma'lum edi. Sharqdan kelayotgan turli savdogarlarning ma'lumotlariga suyanib Xitoy, Hindiston va Yaponiya haqida dunyodagi eng boy hududlar sifatida tasavvur hosil bo'lgan edi. Bu mamlakatlardan olib kelinayotgan mollar, ayniqsa ziravorlar Yevropada juda qimmat turar, Yevropaliklarning oltin va kumushlari kamlik qilib qolgan edi. Shuning uchun ham o'rta asrlarda har qanday metallni oltinga aylantirishni va'da qiluvchi alximiya fani rivojlanib ketdi. Yevropaliklar

Sharqning boy o'lkalariga yetib borishga urinardi, ammo XV- asrda Usmoniylar imperiyasi quruqlik yo'lini to'sib qo'ygan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar jahon taraqqiyotiga benihoya katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Kashfiyotlar jahon savdo yo'llarini butunlay o'zgartirib yubordi. Endi savdo yo'llari O'rta Yer dengizi bo'ylab emas, balki okeanlar orqali o'tadigan bo'ldi. Yangi ochilgan yerlar bilan savdo aloqalari - jahon savdosini vujudga keltirdi. Geografik sayohatlar kashf etilgan "Yangi dunyo" bilan "Eski dunyo" madaniy o'choqlari orasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilishiga imkoniyat yaratildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaliklarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, bilimlarini oshirdi. O'zga qit'alar va xalqlar to'g'risidagi ko'plab afsonalar, noo'rin fikrlar chilparchin bo'ldi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoning yuksalishiga, moliya sohasida bank va kredit ishlarida yangicha uslublar yaratilishiga imkon berdi.

Geografik kashfiyotlar va mustamlaka yerlarni bosib olish Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishning o'sishiga yordam berdi. Lekin, bu ishlar Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomidagi qulligi, tahqirlanishi, og'ir mehnatlari evaziga bo'ldi. Ular Yevropada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaratilishiga xizmat qildilar.

Ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotlarning yo'lbo'shchilari bo'ldilar. Yer yuzasini o'rganishda normanlar, arablar va Sharqiy Yevropada yangi bo'lgan madaniyat markazi - Rossiya alohida rol o'ynagan. VIII-X asrlarda dengiz orqali qilingan geografik kashfiyotlarda normanlar, ya'ni skandinaviyaliklar juda katta rol o'ynaydi. Geografik bilimining kengligi diqqatga sazovordir. Bunga ruslarning G'arbiy Yevropa va Osiyo bilan ham, varyaglar va greklar bilan ham aloqa qilib turganligi, shuningdek, yunon fani bilan ham tanishligi sababdir.

Yevropaliklar Xitoy va Hindiston bilan Old Osiyo, O'rta Osiyo va Markaziy Osiyodan



o'tadigan "shoyi (ipak) yo'li" orqali (arablar savdo yo'lini chetda

qoldirib) savdo olib borar edilar. Bu yo'lni savdogarlar tog'-toshloq cho'llarning og'ir sharoitida bir tomonga uch-to'rt yilda bosib o'tar edilar, lekin Xitoy buyumlarining qimmat baho ekanligi bu qiyinchiliklarni oqlar edi. Xitoyga borgan eng mashhur sayyoh venetsiyalik savdogar Marko Polo bo'lgan. Marko Polo 1271 yil yosh yigitlik davrida sayohatga chiqib, Xitoyda 17 yil yashadi va Yevropaga Janubiy Osiyo orqali 1295-yilda qaytib keldi, shunday qilib, u 24 yil sayohatda bo'ldi. Marko Polo o'z kitobida o'sha vaqtda ko'p jihatdan noma'lum bo'lgan juda ko'p joylar haqida yozdi. Uning bu kitobi Sharq bilan bo'lgan savdoga qiziqishning kuchayishiga yordam berdi. Uning kitobi geografik kashfiyotlar davrida eng ommaviy kitob edi, chunki unda Dunyoning Ptolemey kartasida ko'rsatilmagan joylari yoritib berilgan. Shunday qilib, XII-XIV asrlarda yer yuzasi bilan tanishishda ancha katta qadam tashlandi. Lekin tabiiy hodisalar sababini tushuntirishda diniy qarashlar hali ham hukmronlik qilib kelar edi, shunga qaramay, sayohatlar diniy qarashlarga ancha putur yetkazgan edi, "geografiya" so'zi ishlatilmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Geografiya tarixi.
2. Karomiddin Gadoyev., Sabohat Berdiyeva. Jahongashta sayyoh-olimlar
3. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik
4. mba@library.isu.ru



## XORAZM VILOYATI AHOLISINING TABIIY HARAKATI

**Ganjayeva Momojon Matchanovna**  
**Urganch davlat universiteti o'qituvchisi**  
**Telefon +998(91)4271521**  
**ganjayeva\_m@mail.ru**

*Annotatsiya. U yoki bu mintaqada aholi sonining o'sishi yoki kamayishiga tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlari, shuningdek, ma'muriy-hududiy o'zgarishlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo, ko'pincha aholi sonining o'sishida tabiiy ko'payish muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada keyingi yillarda yuz berayotgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar Xorazm viloyati misolida ko'rib chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: tug'ilish, o'lim, demografik rivojlanish, demografik vaziyat, nikoh, oila.*

Aholining takror barpo etilishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bir-biri bilan bog'langan bir qator omillar mahsuli hisoblanadi. Ushbu jarayonlar ichida tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari aholining soni, tarkibi va joylanishiga bevosita, boshqalari bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Tug'ilish va o'lim muhim demografik jarayonlar hisoblanib, aholining tabiiy harakatini belgilab beradi. Bu o'rinda, bir xil sharoitda, ayniqsa tug'ilish katta ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlash zarur. "Tug'ilish murakkab biologik jarayon, u juda ko'p omillar ta'sirida shakllanadi va o'zgaradi. Bu omillar ijtimoiy-iqtisodiy, geografik, demografik, biologik va boshqa guruhlariga ajratiladi".

Aholining urf-odatlarini va an'analarini ham shular jumlasiga kiradi. Xorazm O'zbekistonning demografik, shu bilan birga ekologik rivojlanishi o'ziga xos bo'lgan viloyatlaridan hisoblanadi. Viloyatda tug'ilish doimo yuqori darajaga, umumiy o'lim ko'rsatkichi esa nisbatan past darajaga ega bo'lgan. Viloyatda 1979-2019 yillar mobaynidagi aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, viloyat miqyosida tug'ilganlarning soni 1990 yilgacha barqaror ravishda ortib borgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi davrlardan boshlab esa tug'ilish darajasi pasayib bormoqda. Yana shuni ta'kidlash joizki, viloyatning shaharlari va qishloq joylari tug'ilish darajalari o'rtasidagi farq uncha katta miqdorni tashkil qilmaydi. Mazkur ko'rsatkich 2018 yil viloyatda jami 1000 aholiga nisbatan 22,0 kishiga, shaharlarda esa har 1000 aholiga nisbatan 20,8 kishiga, qishloq joylarda 22,6 kishiga teng bo'ldi. Demak, shaharlarda; yuqori darajadagi tug'ilish va ayniqsa musbat migratsiya saldosi aholining tez sur'atlarda o'sishiga sabab bo'lmoqda, qishloqlarda esa aholi sonining tezroq sur'atlar bilan ko'payishi birmuncha yuqori darajadagi tug'ilish bilan asoslanadi.

Xorazm viloyatida tug'ilishning yuqori sur'atda bir necha yillar, hattoki, bir nechta demografik avlod almashinishi davomida, ekologik inqiroz sharoitida ham saqlanib qolishi xotin-qizlarning, bolalarning va butun Xorazm aholisi salomatligining yomonlashishiga, har xil kasalliklarning yangi turlari kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Respublikamiz xotin-qizlari o'rtasida o'tkazilgan maxsus tibbiy ko'rik natijasida ularning ko'pchiligi har xil kasalliklar, shu jumladan surunkali kasalliklar bilan ko'p kasallanishi aniqlangan. Ayniqsa, farzand ko'rish yoshidagi onalarning va qizlar orasida ekstragenital kasalliklar onalar o'limchiligiga olib keladigan kam qonlilik kasalliklarining ko'plab uchrashi achinarli hol bo'lib hisoblanadi. Ayrim o'tkazilgan dispanserizatsiya xulosalariga ko'ra Quyi Amudaryo, jumaladan Qoraqalpog'iston va Xorazm xotin-qizlarining 80% dan ortig'i, tug'ilish yoshidagilarning 98-99% i kam qonlikka duchor bo'lganligini ko'rsatadi.

Oshqozon-ichak yarasi kasalligining yangidan paydo bo'lgan zararli turlari so'ngi





yillarda ko`paymoqda. Yildan-yilga yurak qon-tomirlari, o`t pufagi, buyrakda tosh yig`ilishi, buyrak, anemiya, suv, tuz aylanishining buzilishi kasalligi va tayanch organlari kasalliklari bilan kasallanganlar soni ko`paymoqda.

Viloyatda kasallanish darajasi 76% ni tashkil qilib, oshqozon yarasi, ovqat xazm qilish organlari kasalliklari, qon va qon tomirlari sistemasi kasalliklarining soni respublika o`rtacha ko`rsatkichidan yuqori .

Yuqorida ko`rsatilganlarni hisobga olgan holda Xorazm aholisi tug`ilishini tartibga solish shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu o`z navbatida o`zbek millati va h.k.z. xalqlarning sog`lomlashuviga yo`l ochadi.

Xorazm viloyatida yaqin yillargacha tug`ilish rejalashtirilmay keldi. Lekin, hozirgi paytda aholining demografik vaziyati, uning reproduktiv ko`rsatkichlari keskin o`zgardi.

Viloyat mahalliy aholisining demografik vaziyatini tahlil qilganimizda uning demografik vaziyatda o`zgarishlar kuzatildi. Unga ko`ra, ayniqsa reproduktiv yoshdagi dastlabki (16-25 yosh) yosh guruhidagilarning fikrlari o`zgarganligini ko`rish mumkin. Ular o`zlarining oila qurishga shoshilmasliklarini, oiladagi farzandlar sonining o`rtacha 2-3 farzand bo`lishini xohlashlari aniqlandi.

Bu vaziyat albatta, viloyat aholisining demografik rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta`sirlarini ko`rsatadi.

Ijobiy tomoni ularning farzand ko`rish intervallarini to`g`ri yo`lga qo`yilib, sog`lom avlodni yaxshi tarbiyalash imkoniyatini bersa, salbiy tomoni bu oilalarda kelajakda farzandlar sonining yanada kam tug`ilishiga, umuman tabiiy ko`payishning pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu bilan biz, Xorazm oilalarida umuman farzand ko`rishni xohlashmaydigan oilalar bo`ladi degan fikrdan yiroqmiz.

Hozirgi paytda vujudga kelgan yangi vaziyatda, ya`ni reproduktiv ko`rsatkichlarning ancha kamayishi va demografik vaziyatning keskin transformatsiyalanishi davlat tomonidan diqqatdan chetda qolmasligi lozim.

Ko`pchilik oilani rejalashtirish tushunchasini oilada farzandlar soni va tug`ilishni kamaytirish deb tushunadi. Bu albatta, noto`g`ri. BMT tomonidan berilgan izohga ko`ra oilani rejalashtirish bu har bir oilaning xoxlagan paytda, xoxlagan sondagi farzandlar soniga ega bo`lishi uchun mamlakat tomonidan zaruriy vaziyat va sharoit yaratib berishdan iborat. Ko`rinib turganidek, oilani rejalashtirishdagi asosiy maqsad aholining, ayniqsa, ona va bolaning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Bunday ko`z qarashni bizning mamlakatimiz demograflari ham quvvatlaydi.

Oilani rejalashtirishning asosiy maqsadi millatning salomatligini, onalarning va ularning farzandlarining salomatligini muhofaza qilish, bola va onalarning o`limini pasaytirish orqali mustahkamlashdan iborat. Yuqorida keltirilganlarga bog`liq, tug`ishni rejalashtirish ona va bolalikni muhofaza qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, o`lim darajasini pasaytirish va umr ko`rish yoshining o`rtacha uzoqligini orttirishning ahamiyatli quroli sifatida qaraladi .

O`zbekistonning mahalliy aholisi, shu jumladan o`zbek xalqi ham boshqa barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari singari "rejalashtirish" so`zini, ayniqsa, oilani rejalashtirish deganda har bir oilada bo`lishi kerak farzandlar soni miqdorini mamlakat tomonidan belgilab berish deb qabul qilishadi.

Xorazm viloyatida hozirgi kunda oilani rejalashtirishning amaliy tomoniga bog`liq ishlar foal olib borilishi lozim. Har bir shahar, shaharchalarda, qishloq mahalla kengashlarda va yirik qishloqlarda bu xizmatni olib boradigan tarkibida xotin-qizlar maslahatxonalari, tibbiy-genetik kabinet, "Nikoh va oila" kabinetlari va h.k.z. mavjud tushuntirish ishlarini olib boradigan punktlarni tashkil etish zarur deb o`ylaymiz. Aholi orasida targ`ibot tashviqot ishlarini olib boradigan yetuk mutaxassislarni to`plash, ularni bu ishlarni to`g`ri bajarishga yo`naltirish kerak.



1. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. М., 2001. - с.45.
2. Ю.Ш.Шадиметов Центральная Азия: Семья, Экология и здоровье. Материалы круглого стола "Семья, экология и здоровье".
3. Р.Убайдуллаева, О.Б.Ата-Мирзаев, Д.А.Асадов Развитие семьи и здоровье нации. Материалы круглого стола: Семья, экология и здоровье. Т. 1995. С.22-23.



## **BUXORO - ISLOM OLAMI MADNIYATI POYTAHTI.**

**Hayotova Gulmira Zavqiyevna**  
**Buxoro viloyat Jondor tuman 5 - maktab**  
**Geografiya fani o'qituvchisi.**  
**Telefon:93:682-26-88**

Annotatsiya: Maqolada "Buxoro - Islom olami madaniyati poytaxti" maqomi berilishi munosabati bilan aytib o'tilgan fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, islom madaniyati, prezident, poytaxt, musulmon ahli.

Buxoro - jahonning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biri. Ko'hna Buxoroni tarixchilar, sayohatchilar "she'riyat va afsonalar shahri" deb atalgan. Bu qo'hna shaharning har bir ko'chayu xiyoboni, bog'iyu maydoni, xullas kalom har bir go'shasida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Ko'kka bo'y cho'zgan minoralar, obidayu qadamjolar, osoru antiqalar inson aql-zakovatini namoyish qiladi. Buxoro Sharqu G'arbda "ochiq osmon ostidagi muzey, shavkatli tarixning jilvakor ko'zgusi" degan faxrli nomni ham olgan ekan.

Buxoro azaldan islom olamida ulug'lanib kelingan. Buxoroning e'tirofi bugungi kunda ham davom etmoqda. Islom Hamkorlik Tashkiloti(IHT)ning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tuzilmasi (ISESCO) tomonidan 2019-yil 16-sentabr kuni Marokashning Rabot shahrida madaniyat vazirlarining IX-konferensiyasida Qohira(Misir), Bamako(Mali) shaharlari qatori Buxoro ham 2020-yilda "Islom madaniyatining poytaxti" deb e'lon qilindi. Bu esa o'zbekiston uchun yana bir katta yutuq, faxr bo'lib qoladi.

Tashkilot tomonidan Buxoro shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'tirof etilishi avvalambor asrlar davomida yetishib chiqqan olimlarining islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi mahsuli desak adashmaymiz. Yurtimiz azaldan insoniyat tamadduni, jumladan islom madaniyati rivojida alohida o'rin tutadi. Buyuk ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyatning ko'plab sohalari taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasini dunyo tan olgan, barcha xalqaro tashkilotlar e'tirof etgan.

Buxoro shahrining ushbu unvonga sazovor bo'lishining bir qator sabablari ham mavjud. Birinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-3080 qaroriga muvofiq Respublikamizda Islom madaniyati markazi tashkil etildi. Ikkinchidan, 2018 yilda buxorolik tasavvuf namoyondalari Abduxoliq G'ijduvoni tavalludiga 915 yil, Bahouddin Naqshband tavalludiga 700 yil to'lish munosabati bilan 2020 yilda xalqaro miqyosida nishonlanilishi, Ark qo'rg'onidan Langar mus'hafining topilganligi hamda shaharning tarixiy qismida 364 ta tarixiy yodgorliklarning yaxshi holatda saqlanib qolingani va boshqalar. Bundan tashqari Respublikamizda ilk marotaba 2018-2019 yillar orasida "Qorilar musoboqasi"ning o'tkazilganligi va ushbu tanlovda 5000 ishtirokchi (2019-yil 15-yanvar holati) ro'yxatdan o'tganligi e'tiborga loyiq. Shuningdek, Prezidentning 2018 yil kino sohasi vakillari bilan uchrashuvida hadisshunos Imom al-Buxoriy haqida film suratga olish tashabbusini ilgari surgan edi. Shunga muvofiq, hozirda ushbu filmni tayyorlash jarayoni ketmoqda.

Islom dini musulmon mamlakatlari san'atida o'z izini qoldirdi. Aytib o'tish joizki, islom olamidagi to'rt sharif sanalgan shaharlardan biri Buxoroi sharifdir. Sharqda qadimdan "Samarqand sayqali ro'i zamin ast, Buxoro quvvati dini islom ast", deb bekorga aytilmagan. Buxoroi sharifni e'zozlab dunyoning juda ko'p shoirlari, olimlari, mutafakkir va mutassavif donishmandlari, sayyohu elchilar, tarixchilar hamda geograflar qimmatli asarlar yaratgan.



Buxoroning tarixiy qismida yoki Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "shaharning yuragida" ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu yerda haqiqiy o'rta asrlar hunarmandlari mavzesi paydo bo'ladi, Poyi Kalon va Mir Arab madrasalari qayta ta'mirlanadi, Haqiqat va Nurobod ko'chalari kengaytirilib, turistlar uchun sayohat xiyobonlariga aylantiriladi.

ISESCO bosh direktori Abdulaziz bin Usmon at-Tuvayjiriy ta'kidlaganidek, - "Biz olimlardan islom dini va madaniyatini o'rgandik. Bu ilmlar islom sivilizatsiyasining asosini tashkil etadi. Buxoro - buyuk insonlar yurti. U foydali va manfaatli ilmni ixlos bilan tarqatdi" . Bunday fikrlar bizning yurtimiz, xalqimiz , dinimizning qanchalik chuqur e'tirof, e'tiborda ekanining yaqqol dalili desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'aybullaev N.R., Yodgorov R., Jdarkin L.P., Toshmurodova F. va boshq. Pedagogika, 1999.
- 2.Inog'omov R., Toshmurodova F. Pedagogika fani XXI asrda. T.,2000.
- 3.Tursunmetov K., Ahmedov Sh. O'quvchilar bilimni sinashning ba`zi bir muammolari.
- 4.Jdarkin L.P. Pedagogicheskie obuchenie texnologii. 1992.



## **GEOGRAFIYANI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN AYRIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR (INTERFAOL METODLAR) QO'LLANILISHI**

**Madatova Nargiza Bo'riboevna**  
**Zarafshon shahar 12-umumta'lim maktabi**  
**Geografiya fani o'qituvchisi**

*Anontatsiya: Maqolada geografiya darslarida foydalaniladigan ayrim pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'z: aqliy hujm, yozma aqliy hujum, venn diagrammasi, yelpig'ich texnologiyasi*

Jahonning rivojlangan mamalakatlaridagi ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelayotgan va didaktikada ishlab chiqarilgan pedagogik texnologiyalar shaxsga yo'naltiriladiganligi, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarilishiga hamda shaxsga bo'lgan munosabatiga, hozirgi zamon ta'lim tizimida hamkorlik qilayotgan an'anaviy tizimni mazmunan yangilash va ta'lim tarbiya jarayonini tashlik etishni tubdan o'zgartirishga qaratilganligiga ko'ra tavsiflanadi.

Geografiya o'qituvchisi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashlik etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darslarning ma'lum bosqichida, yangi mavzu o'rganilib o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishi va baholashda nazorat testlari, turli o'yin mashqlari, musobaqa, trening o'tkazadi. O'quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko'nikma va malakalarni egallagandan so'ng pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o'tkazishni, ya'ni xususiy metodik darajani qo'llashni boshlashi mumkin.

Biz pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratishimiz mumkin.

1. Pedagogik jarayonning xarakteri borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar - ushbu guruh, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, shaxsga yo'naltirish, rivojlantruvchi kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

2. Geografiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar - ushbu guruhga didaktik o'yin, muommoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyhalash, an'anaviy ta'lim texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Quyida ayrim pedagogik texnologiyalar (interfaol metodlar) ning dars jarayonida qo'llanilishi to'g'risida

„Aqliy hujum“ metodi - ushbu metodning asosiy vazifasi ma'lum vaqt orasida ko'proq g'oyalarni yig'ishdan iborat. Barcha g'oyalar doskaga yoki qog'ozga izohsiz yoziladi.

Metodning xususiyatlari:

- Miqdor jihatdan cheklanganligi ( sinfda o'quvchilar 10-15 kishidan oshmasligi) va guruhlarining xilma-xilligi;

- Eshitishga o'rganish va bir birini g'oyalarni rivojlantirish;

- "O'ylamasdan" aytilgan g'oyalar va hazil mutoyibalar uchun rag'batlantirish;

- Tanqidga yo'l qo'yimaslik va baholashni muhokma qilmaslik;

- Vaqtning cheklanganligi

"Yozma aqliy hujum" - har bir ishtirokchi qisqa vaqt ichida 3 ta g'oyani ajratib qog'ozga yozadi.

- qog'ozning 3 ta ustuni bo'lishi;


- yuqori qismiga umumiy muammo yozib qo'yish;

- har bir ustunga bittadan g'oya yozish;



-yozilgan materiallarni yonidagi o`quvchiga uzatish;  
- avvalgi g`oyalarni o`qib chiqish va bir necha vaqt davomida yangi g`oyalarni taklif qilish.

"Venn diagrammasi" 2 va 3 jihatlarini solishtirish yoki taqqoslashyoki qarama qarshi qo`yish uchun qo`llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish taqqoslash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi. Diagramma Bena tuzush qoidasi bilan tanishadilar alohida kichik guruhlarda diagramma venani tuzadilar va kesshmaydigan joylarini x to`ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar o`zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to`ldiradilar. doiralarni kesuvchi joyda ikki yoki uch doiralarni uchun umumiy bo`lgan muommolar ro`yxatini tuzadi.



"Yelpig`ich" (VEED) texnologiyasi - texnologiya murakkab ko`ptarmoqli bo`lib, mumkin qadar muommo xarakteridagi mavzularni o`rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundaki, bunda mavzuning turli tarmoqlar bo`yicha bir yo`la axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama qilinadi. Masalan ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy tahliliy va aniq mantiqiy fikirlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o`z g`oyalarni yozma va og`zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Yelpig`ich shaklda ixcham bayon etish texnologiyasi, umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlariga qaratiladi.

**MAQSAD:** Yelpig`ich texnologiyasi mavzuning turli bosqichlarida qo`llanilishi mumkin

Boshida: - o`z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o`rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fikirlash va anglab yetish;

Yakunlash bosqichida: - olingan bilimlarini tartibga solish.

Talimdan tashqari "Yilpig`ich" texnologiyasi tarbiyaviy ahamiyatdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

-Jamo, guruhlarda ishlash mahorati;

-Muommolar vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;

-Murosaliqarorlarni topa olish mahorati;

-Xushmuomilalik;

-Ishga ijodiy yondashish;

-Faollik;

-Muammoga diqqatni jamlay olish mahorati.

Geografiya darslarida foydalaniladigan geografik o`yinlarni nafaqat dars jarayonida balki darsdan tashqari mashg`ulotlarni ham qiziqarli vaotishi uchun didaktik o`yinlarning samaradorligi katta bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Geografiyani o`rganishda innavatsion texnologiyalar. Maruzlar to`plami Navoiy shahri.

2 .www.ziyonet.uz-axborot ta'lim tarmog'i





## O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASINI O'RGANISHDA XARITALARNING O'RNI

**Matniyozova Karima Qadamboyevna**

**Xorazm viloyati Bog'ot tumani 17-son maktab geografiya fani o'qituvchisi:**

**Telegram +998(91)420 45 07**

*Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanidan "O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda xaritalarning ahamiyati " bo'yicha dars mashg'ulotlarini samarali tashqil etish va o'tkazishda zarur bo'ladigan nazariy ma'lumotlar, yuzasidan o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalar, ko'nikma malakalar amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va samarali o'tkazishda qo'llaniladi.*

*Kalit so'zlari : Xarita ,gorizont , plan ,masshtab, yozuvsiz xarita,ufq tamonlari*

Geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Karta geografiya o'rganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qila oladi, karta tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham afzallik qilishi mumkin. Maktabda geografiya o'rganilar ekan, u bilan birga karta ham o'rganiladi. Geografiya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqot ishlari kartasiz bajarilmaydi. Karta - geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shunday ekan har bir o'quvchi kartani o'qiy olishi lozim. Xaritadan to'g'ri foydalana olishni o'rganish uchun geografiya o'qituvchisi o'quvchilarni har qaysi yangi karta bilan quyidagi tartibda tanishtirib borishi lozim: kartaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirishi; o'quvchilar e'tiborini karta masshtabiga jalb etishi; kartadagi joyni ko'z bilan chamalab o'lchay olishlari uchun "o'lchov" sifatida xizmat qiladigan "mo'ljal"larni ko'rsatib o'tishi, karta proyeksiyasining xususiyatini ko'rsatib o'tishi lozim.

Karta bilan ishlash. Geografiya o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kartani tushunish va o'qiy olishni o'rgatishdir. Kartani bilishning ma'nosi shuki, o'quvchilar undagi shartli belgilarga tushunishlari va shu shartli belgilar orqali ko'rsatilgan predmet va hodisalarning obrazlarini ko'z oldilariga keltira olishlari, kartaga qaraganlarida ular ongida daryolar, tog' tizmalari va muzliklarning manzaralari hosil bo'lishi kerak.

Kartani bilish uchun joyda oriyentirlashni, gorizont tomonlari yo'nalishlarini qog'ozda tasvirlashni, masshtab bilan ishlashni, joy planini o'qishni va chizishni bilish kerak. Undan keyin esa o'quvchilar globus va kartalarda geografik kenglik va uzunliklarni aniqlash, turli mazmundagi (tabiiy, iqlim, tuproq, o'simlik va boshka) kartalarni o'qishni, kartaning asosiy afzal va kamchilik tomonlarini aniqlashni bilishi lozim. O'quvchilar kartani bila olsalar shartli belgilar va yozuvlar asosida hududni tasvirlashga o'rganadilar. Shu bilan birga o'quvchilar kartani sharhlashga hamda o'zaro aloqa va munosabatlarni ochib berishga hamda kartada bevosita ko'rsatilmagan narsalarni ham aytib bera olishga o'rganadilar.

Masalan, O'zbekistonda relyefning qanday shakllari uchraydi, degan savolga, o'quvchilar kartaga qarab, O'zbekistondagi muhim tog' va pasttekisliklarni ko'rsatib berish bilan kifoyalanadilar. Bunday ish VII sinfda ancha murakkablasha boradi. Kartani o'qish murakkablashgan sayin o'quvchilarning bilimi ham chuqurlashib boradi. Masalan, Markaziy Osiyo yer yuzasini qanday tasvirlash mumkin. Markaziy Osiyoning g'arbida relyefning qanday shaklini ko'rish mumkin, Pomirdan shimol va sharqda qanday tog' tizmalari joylashgan, Pomirdan sharqda, u bilan deyarli bir kenglikda qanday tog' joylashgan, uning nomi nima, Tibetni janubdan qanday tog'lar o'rab turadi. Uning balandligini aniqlang. Himolay tog'lari qaysi yo'nalishda joylashgan va uning uzunligini aniqlang va h. k. Geografiya fani va ta'limini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Karta geografiya fanidagina emas, balki insonning amaliy faoliyatida ham cheksiz ahamiyatga ega. Chunki,



biron geografik tadqiqotni, inson turmush tarzini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Geografik kartalarning ahamiyati hozirgi kunda ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida foydalanilmoqda.

Geografiya ta'lim jarayonida karta ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar karta bilan quyi sinflardan tanisha boshlaydi. Karta obektlar joylashgan o'rnini ko'rsatibgina qolmasdan, balki voqea va xodisalarni, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni bilishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2014.-153-162 betlar.
2. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya sifat va samaradorlik omili.- Toshkent.: Tafakkur, 2010.-254-255 betlar.



## GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISHDA TOPISHMOQ, SHE'R VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHING AHAMIYATI

**Matsayidova Sayyora Xudoyberganovna UrDU dotsenti.**

**smatsaidova@mail.ru**

**tel.+998977817310**

**Atabayeva Mavjuda Rustamovna UrDU akademik litseyi**

**p20176@urdu.uz**

**tel.+998905588510**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya ta'limida topishmoq metodlaridan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, topishmoq, maqol, tabiat, masshtab.*

O'zbekiston Respublikasi davlatmustaqilligining birinchi yilidan boshlab yoshlar ta'limi va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilinishi yosh avlod kamoloti, uzluksiz ta'lim tizimining ravnaqi haqidagi chinakam g'amxo'rlikning dalilidir.[2] Yoshlarga ta'lim tarbiya berish jarayoni nihoyatda masuliyatli bo'lib, bunda ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi vatanimizga munosib farzandlarini tarbiyalash, aniqrog'i bilimdon, vatanparvar, milliy iftixor tuyg'ulari jo'sh urib turgan, faoliyat ko'rsata oladigan yangi avlodni kamol toptirishdir. Bunga erishish uchun umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning eng yangi va samarador usul, shakl va metodlarini yaratish taqozo qilinadi. Barkamol shaxsni shakllantirishga imkon beruvchi o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishning muhim vazifasi maktab ta'limi samaradorligini oshirishdir. Ta'lim samaradorligi ta'lim mazmunining maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi, turmush bilan bog'liqligi, shuningdek mazmunga mos metodlar, shakllar va vositalar majmuasining tanlanishi bilan ta'minlanadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shart-sharoitlardan biri o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli-tuman ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida geografiya darslarida topishmoq, she'r va maqollardan to'g'ri foydalana olish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Olimlar va pedagoglar bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun farzandlarimiz kamoloti yo'lida biz mablag' va imkoniyatlarimizni ayamashimiz kerak" Shunday ekan, tabiatda bo'layotgan voqea, hodisa jarayonlarni topishmoq, she'r va maqollardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatimiz bor. Geografiya darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab foydalaniladigan topishmoq, she'r va maqollar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishlarini osonlashtiradi, mustaqil fikrlashga undaydi. Biroq respublikamiz geograf o'qituvchilari va metodistlarining pedagogik faoliyatida ta'limning boshqa vositalari kabi topishmoq, she'r va maqollardan ommaviy foydalanish masalasi ham o'z ijobiy yechimini topmagan. Buning asosiy sabablari sirasiga topishmoq, she'r va maqollardan foydalanish metodikasi bo'yicha yetarlicha asoslangan uslubiy ishlanmalarning yo'qligi, mashg'ulotlar jarayonida topishmoq, she'r va maqollarni ishlata olish mavhumligi, geografiyani o'rganishda turli topishmoq, she'r va maqollarga qo'yiladigan talablarning ishlab chiqilmaganligini kiritish mumkin. Darslikda "plan masshtabi (miqiyosi)"ga juda keng o'rin ajratilgan, Shu o'rinda masshtab nafaqat planlar uchun, balki xaritalar hamda globuslarni yaratishga, o'qiy olishga ham vosita ekanligini o'quvchilarga tushintirib o'tiladi. Bizga ma'lumki, masshtab deb surati bilan maxraji plandagi joyining haqiqiy masofaga nisbatan necha marta kichraytirilganini ko'rsatuvchi kasrga aytiladi. Ushbu masala



quyidagi satrlarda o'z ifodasini topgan.[5]

### MASSHTAB

Katta joyni kichik qog'ozga  
Tushirmoq uchun kasr qo'llanadi,  
Suratiga bir sonni qo'yib  
Maxrajiga bir son tanlanadi.

She`rda qanday fikr ilgari so`ralyapti? Tahlil etamiz she`r izohiga ko`ra masshtabga ta`rif berilyapti. Mazmuni chuqur tahlil qilinsa, matematik amal ko`zga tashlanib ma`nosi kelib chiqadi. Bunda bu lsm hisobidagi shartli son maxrajdagi "n" esa noma'lum sonni yaxshi bilamizki, tasvirlanishi lozim bo`lgan xududga, bo'lajak xarita yoki plan hamda tanlagan qog'ozning hajmidagi nisbatga ko`ra xaritashunosning o`zi tanlaydi.

Bu shamol tursa, ko`p ofat yetar. (Dovul)

Bu o'rinda biz foydalanyotgan sher, topishmoq, maqollar o'quvchiga qiziqarli tarzdayetib borishi tadqiqot natijalarimiz isbotidir. Ana shu tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Geografiya darslarida topishmoq, sher va maqollardan foydalanish o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, xotira mustahkamligini oshirishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatishi uchun zarurdir;

2. Geografiya darslari mavzulariga oid bo'lgan topishmoq, sher va maqollar jamlangan qo'shimcha manbalarni o'qish, dars jarayonlarida qo'llash imkonini yaratish zarur;

3. Geografiya ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun dars jarayonida topishmoq, sher va maqollardan foydalanish o'quvchilarda asosida ishlangan dars ishlanmalar, tanlovlari e'lon qilinib turishi maqsadga muvofiqdir;

Shuningdek, Geografiya talimida topishmoq, sher va maqollardan foydalanish o'quvchilarning yoshiga mos tarzda tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017 263b.

2. Sultonova G. "Pedagogik mahorat". O'quv-metodik qo'llanma. T., 2005

3. Gadoev K., Berdieva S. Jahongashta sayyoh - olimlar. -T.: O'zbekiston, 2012.

4. Mavjutov D. Geografik topishmoqlar. - T.: Mehnat, 2001



## **GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN VA MOHIYATI**

**Muxamedova Dilovar Islomovna,  
Navoiy viloyat Zarafshon shahar 13-umumta'lim maktab  
Geografiya fani o'qituvchisi**

*Annotatsiya: Maqolada geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanishning mazmun va mohiyati*

*Kalitso'z: AKT, geografiya, darslik, videolavha*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimidagi o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga muhim vafidoylik ko'rsatish azifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrli, milliy merosimizni qadrlaydigan, ilmiy ijodkor, nozik didli qilib tarbiyalashni o'qituvchilardan tinmay ijodiy izlanishlarini talab etmoqda.

Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish bugungi kun geografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o'rni kattadir. Chunki, geografiya yer yuzi tabiati, aholisi va uning xo'jalik faoliyati haqidagi fandır. Bugungi kunga kelib, geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Geografik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ushbu geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan havasini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

"Munozara" o'yini. Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak. Geografiyadan "Orol dengizini saqlab qolish" muammosi tarixidan tanlangan muammo qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a'zosi qo'yilgan muammolar haqida o'z fikrini bayon etish huquqiga ega.

Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

"Kim ko'p biladi" o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 ball dan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

"Xayoliy sayohat" o'yini. Ta'limning bu o'yini geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin. Tarixdan biror davrdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografiyadan biron-bir qishloq, materik, orol yoki davlat bo'ylab xayoliy sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

"Pochta" o'yini. Bu geografik o'yinni barcha o'quv mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'qituvchi bir necha mavzuga mos konvert olib, uning ustiga eng zarur bo'lgan asosiy yozuvlar yozib qo'yadi va ular stol atrofiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan, deylik 6-sinf "Materiklar va okeanlar" geografiyasi kursida 6 ta konvert olinib, ostiga "Afrika", "Antarktida", "Avstraliya", "Janubiy Amerika", "Shimoliy Amerika", "Yevroosiyo" deb yoziladi. Endi shu materiklardagi daryo, ko'l, shahar,



davlat, tog' va tekislik nomlari yozilgan qog'ozchalar o'quvchilarga tarqatiladi va qaysi nom qaysi materikka mos kelsa, o'quvchi uni o'sha konvertga solishi kerak. Kim savollarga ko'p va aniq javob topsa, o'sha yuqori ball oladi. Bunday usulni boshqa fanlarda ham keng qo'llash mumkin.

"Tovush chiqarmasdan topish" o'yini. O'yinni boshlashdan avval o'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi, o'yinda faol qatnashgan va shartlarini oldin bajargan o'quvchiga baho qo'yiladi. O'yin mazmunini o'qituvchi geoeologik biron ob'ekt nomini aytadi. O'quvchi o'quv vositasidan shu ob'ektni geografik kartadan yoki atlasdan qidiradi. O'yinning borishi: ob'ektni topgach o'quvchi o'ng qo'lini ko'taradi, o'qituvchiga o'zi topgan ob'ektni ko'rsatadi, o'quvchi qo'li bilan ob'ektni ushlab turmasligi kerak, chunki yonidagi bola undan ko'rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun ob'ektni topgan o'quvchi joyning nomini yodida saqlashi zarur. O'qituvchi oldin topgan va qo'lini ko'targan o'quvchining oldiga borishi va tekshirib ko'rishi kerak. Boshqa o'quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham ob'ekt so'raladi. Ob'ektni topgan o'quvchi o'tirgandan so'ng o'qituvchi yangi ob'ekt nomini aytadi.

"Kartadan topish" o'yini. Har bir sinfda olib borish mumkin darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasning sahifalaridagi turli ob'ektlardan bo'ladi. O'yinni uslubi: O'qituvchi geografik ob'ektni aytadi. O'quvchilar topadi va izohlab beradi. O'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng tez topadigan bo'ladi. O'quvchilar murakkablashtirib borib, shu topiladigan nomning geografik koordinatalarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo'riqxonalarini tanlagan ma'qul. O'quvchilar topilgan joyning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

Geografiya - darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rol ni geografik o'yinlar egallaydi. Geografik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.





## GEOGRAFIYA SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR: MNEMOTEKNIKA USULLARIDAN FOYDALANISH

**Nurbuvayeva Shahzodaxon Rasuljonovna Marhamat tumanidagi 24-umumta'lim maktabining oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi,  
Elektron pochta:@shahzodanurbuvaeva@gmail.com  
Tel raqami:90 1701071**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'p hajmli, murakkab ma'lumotlarni xotirada oson va uzoq vaqt saqlab qolish uchun yordam beradigan ayrim usullar haqida so'z yuritiladi. Maqolada ilgari surilgan fikrlar attestatsiya jarayonlariga tayyorlanayotgan o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlariga tayyorlanayotgan abituriyentlar, talabalar, o'quvchilar kundalik hayotda ko'p insonlarga yordam berishi mumkin.*

*Kalit so'zlar: mnemonika, mnemotexnika, HOMES, Sitseron va Ayvazovskiyy usullari, Niagara*

Har bir insonning hayotida va kundalik faoliyatida eng zarur vositalardan biri xotira hisoblanadi. Turli voqea va hodisalarni, raqamli ko'rsatkichlarni, ish jarayonlari ketma-ketligini esda saqlab qolish kishidan juda katta diqqat va e'tiborni talab etadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar uchun katta hajmli ma'lumotlarni yodda umrbod saqlab qolish juda muhimdir. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun mnemonikadan, mnemotexnika usullaridan dars jarayonlari va kundalik hayotda doimo foydalanish kutilgan natijalarga olib keladi. Bu usullar davlat imtihonlariga tayyorlanayotgan abituriyentlar va attestatsiya jarayonlariga tayyorlanayotgan ustozlar uchun ham juda qo'l keladi. Bunday usullardan foydalanish uchun avvalo, uning mazmun va mohiyatini tushunib olish lozim.

"Mnemonika" grekcha so'z bo'lib, " eslab qolish", " xotira san'ati" ma'nosini bildiradi. "Mnemotexnika" esa kerakli ma'lumotni eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytirishga xizmat qiluvchi maxsus mashqlar va usullar uyg'unligidir. Shuningdek, "mnemonika" atamasi ma'lum bir obyektни yoki subyektни , hodisani u haqda to'liq tasavvur beruvchi simvollar yoki predmetlar to'plami orqali eslab qolishni osonlashtirish ma'nosini ham bildiradi.

Mavhum so'zlar va narsalarni, murakkab mavzularni eslab qolish ko'pchilik insonlarda qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi so'zlar inson tafakkurida bir necha kun saqlanadi xolos. Bunday hollarda bir vaqtning o'zida narsa va hodisalarni qiyinchiliksiz va mustahkam eslab qolish uchun yorqin kuchli his-hayajonli nisbatli so'zlarni eslab qolish maqsadga muvofiq bo'ladi. Gerald Miller tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, mnemonika mexanizmlarini ishlatgan o'quvchining test natijalarida 77% ga o'sish kuzatilgan.

Mnemonik eslab qolish to'rt bosqichdan iborat:

- 1.Kerakli o'xshash obrazni eslab qolish
- 2.Ikkala obrazning bog'liqligini eslab qolish
- 3.Ketma-ketlikni eslab qolish
- 4.Xotirada mustahkamlash

Geografiya darslarida ham murakkab, o'xshash, raqamli ma'lumotlarga boy mavzularni o'quvchilar oson o'zlashtirishi va xotirada umrbod saqlab qolishi uchun quyidagi mnemotexnik usullardan foydalanishni hamkasb ustozlarga va o'quvchilarga tavsiya qilaman.

1.Geografik voqea va hodisalarni sodir bo'lgan vaqtini eslab qolish uchun hayotdagi eng yaqin insonlarning tug'ilgan yili va sanasiga bog'lab eslab qolish. M:Otasining tug'ilgan yili 1975-yil bo'lsa, bu yilda geografiya tarixida quyidagi voqealar sodir bo'lgan:

O'zbekistonda Nurota va Zarafshon qo'riqxonalari tashkil etilgan, jahon aholisi 4 mlrd



kishiga yetgan.

2. Sodir bo'lgan birorta geografik voqeaga bog'lab shu vaqtda sodir bo'lgan boshqa voqealarni ham eslab qolish. M: O'zbekistonda eng issiq harorat kuzatilgan yilda (1914-yil) Yer po'sti va mantiya oralig'idagi chegara yevropalik olim Moxorovichich tomonidan aniqlangan, Panama kanali ochilgan yoki 1507-yilda ya'ni, geografik xaritaga dastlab Atlantika okeani atamasi yozilgan vaqtda Yangi dunyoga Amerika nomi berilgan. Shimoliy Muz okeanidagi Kanada cho'kmasining chuqurligi (3810 m) bilan dunyodagi ehg baland tog' ko'li Titikaka ko'lining dengiz sathidan joylashgan balandligi bir xil. Shimoliy Muz okeanidagi Nansen va Litke cho'kmalari bir xil chuqurlikka ega ya'ni, chuqurligi 5449 m ni tashkil etadi. Dunyodagi eng chuqur ko'l-Baykal ko'lining chuqurligi (1620 m) bilan bir xil raqamni anglatuvchi ma'lumot-1620-yilda rus sayyoh-olimi I.Xoxlov O'rta Osiyo tabiatini o'rgangan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Yer tasviri" asari rus tiliga tarjima qilingan vaqtda (1878-yil) shved olimi N.A.Nordensheld Shimoliy Muz okeaniga ekspeditsiya uyushtirgan.

3. Raqamlarning ketma-ketligiga qarab biror hodisa yoki ma'lumotni eslab qolish. M:1,2,3 raqamlarining ketma-ketligi O'zbekistondagi Sangzor daryosining uzunligini ifodalaydi, ya'ni daryoning uzunligi 123 km ni tashkil etadi.

4. Ketma-ket joylashgan geografik obyektlar nomini ularning bosh harflarini yod olish orqali eslab qolish. M: AQSH da geografiya darslarida unda joylashgan jahonga mashhur beshta ko'ldan iborat Buyuk ko'llar nomini tartib bilan eslab qolish uchun HOMES (Buyuk ko'llar ro'yxati) atamasi ishlatiladi. Guron (inglizchada G harfi so'z boshida kelsa H tarzida yoziladi), Ontario, Michigan, Eri, Yuqori (Superior)

5. Eslab qolinishi lozim bo'lgan ma'lumotdagi bosh harflardan mantiqiy so'z yasash orqali xotirada saqlash. Bu ayniqsa, geografik obyektlarning nomlarini eslab qolishga juda katta yordam beradi. Uni geografiya darslarida o'yin tarzida ham tashkil etish mumkin ya'ni, sinfdagi o'quvchilar ismining bosh harflariga bog'lab joy nomlarini tez aytish musobaqasini o'tkazish orqali. M: suv havzalariga oid ma'lumotlar o'rganilganda har bir o'quvchi o'z ismining bosh harfi bilan boshlanadigan suv havzalari nomini aytishi va bu bilan butun sinfning diqqat-e'tiborini tortish orqali yod oldirish. Ozoda-Orol ko'li, Nafisa -Niagara sharsharasi, Abdullo-Aydarko'l, Tolibjon-Tinch okeani kabi davom ettirish mumkin.

6. Geografiya darslarida "Eng, eng, eng..." usulidan muntazam foydalanib borish ham olingan bilimlarning o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi. M: "Eng" so'zi ishtirok etgan ma'lumotlarni aytirish musobaqasini tashkil etish orqali kutilgan natijaga albatta erishiladi. Eng katta okean-Tinch okeani, eng kichik okean-Shimoliy Muz okeani, eng katta davlat-Rossiya, eng kichik davlat-Vatikan, eng qimmatbaho metall-radiy, eng maftunkor sharshara-Niagara kabi davom ettirish mumkin.

7. Jahon miqyosida sodir bo'lgan birorta global voqea orqali yil va sanalarni eslab qolish. M: Koronavirus pandemiyasi-2020-yil, Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi-2008-2009-yillar.

8. Dars jarayonlarida mnemotexnikadan foydalanilganda Sitseron va Ayvazovskiy usullaridan ham foydalanish murakkab mazularni oson o'zlashtirishga va xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi. Sitseron xotirada saqlab qolish murakkab bo'lgan jarayonlarni eslab qolish uchun ma'lumotlarni o'z xonasidagi buyum va jihozlarga bog'lab o'rgangan. Geografiya darslarida bunday usuldan foydalanish uchun o'quv xonasidagi jihoz va buyumlarga, davlat va viloyatlarning maketlariga bog'lab ma'lumot aytish kerak. M: globus-yerning shar shaklidaligini ifodalaydi,

Davlat va viloyatlarning maketiga ularning nomini yozmasdan uni siyosiy xaritaga solishtirib aniqlash orqali o'rgatish jahondagi 240 dan ortiq davlatlarni va respublikamizdagi viloyatlarni o'quvchilar tomonidan chalkashtirmay o'zlashtirishiga



turtki bo'ladi.

Ayvazovskiy hayotda rassom bo'lganligi uchun murakkab ma'lumotlarni eslab qolish uchun rasmlardan unumli foydalangan. Ko'p ma'lumotlar yozilgan matnlarga 3 daqiqa davomida diqqat bilan qarab turgan va ko'zini yumgan holda 3 daqiqa ko'z oldiga keltirgan. Bu holatni uch marotaba takrorlaganda u o'z samarasini ko'rsatgan. Geografiya darslarida ham 9-sinfidagi "Jahon xo'jaligi", "Rossiya Federatsiyasi" kabi murakkab, ma'lumotlarni bir-biridan farqlash qiyin bo'lgan mavzularni o'rganishda bu usul katta ahamiyatga ega.

Men o'z hayotimda ma'lumotlarni ko'proq eslab qolish uchun ularga ajablanib "Voy, shunday ekanmi?" deb qarashga harakat qilaman. Yangi darsliklar bilan eski darsliklardagi ma'lumotlarni yonma-yon qo'yib bir-biriga taqqoslayman. Bu holat menga juda ko'p asqotadi. Atrofimdagi insonlar "yoshingiz 40 dan oshsa ham uncha-muncha yoshlardan xotirangiz kuchli" deb havas qilishadi. Bu texnikam tufayli men attestatsiya jarayonida 100 balldan 100 ball to'plab, tuman va viloyatimizdagi geograf o'qituvchilarni hayron qoldirganman, u menga haqiqatdan ham amaliy yordam bergan. O'ylaymanki, men yozgan mnemotexnikaga oid ayrim usullar hamkasblarim va o'quchi yoshlarga asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahrom Akbarov, Lobar Mutalova "O'tkir zehnlilar kitobi" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 2014-yil
2. Abdurasul Abdullayev "Daqiqa qadri" Toshkent "Davr Press" nashriyoti, 2019-yil



## GEOGRAFIYA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADAN FOYDALANISH USLUBLARI

**Qosimova Mahfuza Pazliddinovna, Namangan shahar 83-maktabning geografiya fani o'qituvchisi/ Tel:+998 94 5098303**

### *Annotatsiya*

*O'quvchilarda fanlararo kompetensiya rivojlantiriladi, mantiqiy fikrlash yuzaga keladi. Demak, darslarning integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o'tishini, balki o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi.*

*Kalit so'zlar: integrallashgan, geografiya, texnologiya, kompetensiya, usul, dars*

Fanda integrallashgan dars o'tish hozirgi texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrning muhim talabidir. O'quvchini diqqat e'tiborini darsga qaratish va shu o'tilayotgan mavzusiga bo'lgan qiziqishini orttirishda barcha amaliy va nazariy fanlarga taalluqli ma'lumotlar bilan uzviy bog'liq holda darsni tashkil qilish zarurati tug'iladi. Geografiya fanini boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish, geografiya darslarida kompetensiyalarni shakllantirish maktab o'quv fanlari o'rtasidagi aloqadorlikni namoyon etadi. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda geografiya fanining bir qator fanlar, jumladan, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, chet tili, tarix, ekologiya, jismoniy tarbiya fanlari bilan integratsiyalashuvi muhim o'rin egallaydi. Quyida biz geografiya darslarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuv jarayonlariga to'xtalamiz:

Geografiya fanining kimyo fani bilan bog'liqligi shundaki, geografiya darslarida kimyoviy elementlar va o'rganilayotgan moddalar tarqalishi haqida doimiy ravishda ma'lumotlar berib boriladi. Masalan, 7-sinf kimyo darsida "Suvning inson va tabiatdagi ahamiyati" mavzusi. Geografiya laboratoriyasida suvning tarqalishi, ekologiya laboratoriyasida suvning ifloslanishi oqibatlarini haqida tushunchalar beriladi. Shu nuqtai nazardan kimyo fani geografiya fani bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Masalan, 9-sinfda natriy va kaliy metallari biriikmalarini o'rganish, metallurgiya sanoati xom ashyosi haqidagi mavzularni o'qitishga qaratilgan ba'zi holatlarni misol qilib keltirish mumkin. Mamlakatimiz hududida juda ko'p xilma-xil tabiiy boyliklar bor, bu boyliklarni o'quvchilarga tushuntirishda tabiiy xaritadan foydalaniladi. Shunday ekan, kimyodan o'tiladigan har bir darsda geografik xaritaga asoslanishga to'g'ri keladi.

Geografiyaning biologiya fani bilan bog'liqligiga kelsak, tiriklik yer sharining turli qismlarida turlicha tarqalgan. Ekvatorda yashash uchun sharoit qulay bo'lganligi sababli tiriklik zich, qutblarga qarab siyraklashib boradi. Litosferada atmosferaga yaqin qismlarida zich, chuqurlashib borgan sari ularning miqdori kamayib, faqat bakteriyalar saqlanib qoladi. Atmosferaning quyi chegarasi troposferada tirik organizmlarning yashash uchun qulay, ozon ekranidan yuqorida zararli ultrabinafsha nurlari hisobiga hayot kuzatilmaydi. Gidrosferada chuqur qatlamlarga kirib borgan sari faqat moslashgan organizmlar yashab qoladi. Yer sharida quruqlikning joylashuvi, iqlimning turlicha bo'lishi tufayli o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos tuzilishga ega. Masalan, 6 sinf botanika darsligidagi "Karamdoshlar oilasi" mavzusi misolida buni ko'rib chiqsak. Bu oila vakillari Yer sharining barcha qit'alarida o'sadi (geografiya). Hayotiy shakli bir, ikki va ko'p yillik o't. Barcha tirik organizmlar kimyoviy moddalar oksillar, uglevodlar, lipidlar vanuklein kislotalardan tashkil topgan. Kimyoviy moddalarning sintezlanishi va funksiyasi haqida ma'lumot berish diqqatga sazovordir. Masalan, O'simliklarda amalga oshadigan fotosintez jarayonini kuzatganimizda kimyo fani integratsiyasini kurishimiz mumkin.

Ona tili fani bilan bog'liqligi shundaki: Misol uchun, 6- sinf o'quv dasturidagi "Suv



havzalari va inshootlari" mavzusining integratsiyalashgan jarayonini ko'rib o'tsak. O'quvchilar shu mavzuni o'rganishida xalq og'zaki ijodidan "So'z ko'rki - maqol" o'yinidan foydalanadilar. O'quvchilar suv haqida kim ko'p maqol topishish musobaqasini o'tkazadilar. 1. Suv - zar, suvchi - zargar. 2. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. 3. Yer - xazina, suv - oltin. 4. Yomon arida bol bo'lmas, suvsiz yerda tol bo'lmas. Bu uslub orqali o'quvchilarning tafakkuri, fikrlash qobiliyati o'sadi. Bu kabi savollar orqali o'quvchilarning biologiya fanidan olgan bilimlari ham sinaladi. O'quvchilar tomonidan mavzuga oid she'rlar, asarlardan parchalar ifodali o'qib berilishi dars jarayonini intensivlashtiradi.

Geografiya fanining fizika fani bilan bog'liqligi shundaki, 7-sinfda o'rganiladigan "Tabiiy geografiya" kursida o'quvchilar turli mineral moddalar va foydali qazilmalarning yer qo'rigida hosil bo'lish tarixi bilan tanishadilar. "Atmosfera bosimi", "Issiqlik dvigatellari va ularning ishlashi", va boshqa mavzularni o'rganish bu ikkala fan bog'lanishini ko'rsatadi. Yerning tuzilishi, o'lchamlari, harakati, atmosferasi, atmosfera bosimini o'lchash, shamollarning hosil bo'lishi, energiya manbalari va energiyadan foydalanish to'g'risidagi bilimlar asosida fizika qonunlari mavjud bo'lib, bu bilimlar geografiya kursida ham o'rganiladi. O'quvchilar boshqa fanlardan olgan bilimlariga tayanib, geografik bilimlarini mustaqil o'rganishga kirishadilar. Shu tarzda uyushirilgan darslar jonli o'tadi. O'quvchilarning boshqa predmetlarning o'rganishdagi mas'uliyatini ham oshiradi. O'quvchilar maktab geografiyasini o'rganar ekanlar, o'zlari hali bilib ulgurmagan hodisalar bilan tanishadilar va ularning mohiyatini tushunib yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, geografiya o'quv jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyalash o'quvchilarning mavzuni oson o'zlashtirishlariga yordam beradi, dars sifati va pedagogning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev I.X., Seytdjelilova E.S. Amaliy geografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. -T.:2015

2. Abdullayev.N. "Geografiya darslarida ta'limning texnika vositalardan foydalanish" "O'qituvchi" 1990 y

3. "Biologiya" 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 - sinf darsliklari.





## GEOGRAFIYA TA'LIMI METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI TASNIFI

**Rafiqova Faridaxon,  
Namangan viloyati Yngiqo'rg'on tumani  
7-maktab o'qituvchisi**

*Annotatsiya: ushbu maqolada ta'limda qo'llaniladigan metodlar xususida so'z boradi. Ularning samarasi haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: metod, metod turlari, skarabey texnologiyasi, nafis arra.*

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Didaktikada metod - deganda o'qituvchi rahbarligida turli metodlar vositasida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantirishda hamda ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi.

O'quv materialini mazmuni ta'limning turli vositalari yordamida va turli metodlar bilan o'zlashtiriladi. Shu sababli har doim o'quvchi oldida muvofaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish va o'qishga yordam beradigan yo'llarni tanlash muammosi turadi. O'quv materialini o'rganishning turli shakllarini qidirish darsning maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Metod so'zi grekcha "metodis" so'zidan olingan bo'lib, aynan "tadqiqot degan ma'noni bildiradi. Didaktika fani metod terminiga ta'rif berish bo'yicha aniq bir qoidani hali yaratganicha yo'q. Bu masala borasida turli ta'rif va qoidalar mavjud. Didaktika fanida ta'lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonida birgalikdagi faoliyati tushuniladi.

XXI asr innovasiyalar ya'ni fan-texnika sohasidagi ilg'or kashfiyotlarni ishlab chiqarish, boshqarish, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy jabhalariga joriy etilish asridir. Zero, insoniyat taraqqiyotini innovasiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiy-ijtimoiy ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi va jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlar, uni yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Geografik, shu jumladan maktabda o'qitiladigan geografik fanlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Skarabey texnologiyasi. Skarabey uslubi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Skarabey texnologiyasi o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Nafis arra texnologiyasi. Ushbu uslubda darsda o'rganiladigan mavzu nomi yozuv taxtasiga yoziladi va qanday savollarga javob topilishi lozim ekanligi tushuntiriladi. Guruh o'quvchilari 5-6 kichik guruhlariga (boshlang'ich guruh) bo'linadi va har bir guruh o'rganiladigan mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan kerakli materiallar papkasi bilan ta'minlanadi. Boshlang'ich guruhlar 10-12 daqiqa davomida taqdim qilingan materialni o'rganadi va muhokama qiladi. Natijada o'qituvchi o'ziga berilgan mavzuni yaxshi biladigan 5-6 guruh ekspertlariga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda har bir guruhdagi ishtirokchiga ma'lum tartib raqami beriladi va tartib raqamlari bir xil bo'lgan o'quvchilardan yangi (ekspertlar) guruhlarini tuziladi. Mavzu muhokamasining 15-20 daqiqasi davomida yangi ekspertlar guruhini har bir a'zosi oldingi guruhga berilgan mavzu mazmunini tushuntirib beradi. Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo'yicha o'zlashtirish ta'minlanadi. Ekspertlar





guruhining har bir a'zosi olingan axborotni ma'lum bir vaziyatda qo'llay olishini ta'minlash uchun mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyat guruhlarga beriladi va har bir guruh uslubi muammoni to'g'ri yechimini topishi lozim. Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o'tkazilgach guruhlarning sardorlari muammo bilan guruhni tanishtiradi va uning yechimini ko'rsatib beradi.

Muammoni hal etish texnologiyasi. Muammoni hal qilish uslubi yoki muammoga qaratilgan uslubi - muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishga o'quvchining tayyorgarligini tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. O'quvchi bunda birinchi bo'lib muammoni aniqlab oladi. So'ngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chog'ida o'quvchi kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalardan va Internet tizimidan foydalanishi mumkin. Olingan axborotlarni ishonchliligini baholash, uni mahalliy sharoitlarda tadbiiq etsa bo'lishini idrok etishi lozim. O'quvchi olingan ma'lumotlardan xulosa chiqarishi va ularni amalda tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Maktablarda Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni mavzusini o'qitish uchun quyidagi interfaol usullaridan foydalanish mumkin: aqlni ishlatishga yo'naltirilgan harakat (aqliy hujum); guruhlarda bahs, munozara; kichik guruhlarda ish olib borish, rolli o'yinlar, ish o'yinlari va hokazolar.

Amaliy o'yinlar texnologiyasi. Amaliy yoki ishchan o'yinlar Yangi mavzuni o'zlashtirish, takrorlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini bajarish imkonini beradi. O'quv jarayonida Amaliy o'yinlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin (taqlid qilish, roli o'yinlar, "teatr darslari", sahna ko'rinishlari va h.k. lar).

Taqlid qilish o'yinlarida mashg'ulot jarayonida tashkilot, korxonada ishiga taqlid qilinadi (ish yig'ilishi, ish rejasining muhokamasi, muzokaralar, munozaralarni olib borish, sud, patent tashkiloti, ilmiy kengashlarda chiqishlar va h.k. lar).

Rolli o'yinlar darsida o'quvchi turli xil xarakterdagi inson obraziga qalban kirishib ketadi. O'quvchilar ushbu berilgan muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib o'ynashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. - Urganch, 2001.
2. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.- T.: Kamalak, 2013.
3. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi. - T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010.



## СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ФЕРМЕРЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети**  
**География ва табиий ресурслар факультети,**  
**1-курс магистранти Рахматов Абдухолик Фарходович.**  
**Тел +998919729395**

*АННОТАЦИЯ: Ушбу мақола Сурхондарё вилоятида фермерчиликни ривожланишининг географик хусусиятларини тадқиқ этишни билдиради.*

*КАЛИТ СЎЗЛАР: фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари, қишлоқ хўжалиги корхоналаридир.*

Бугунги кунга келиб ҳам аграр соҳани ривожлантиришга бўлган эътибор давлатимиз раҳбариятининг доим диққат марказидадир, чунки мамлакатимиз аҳолисинининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига, қайта ишлаш саноатини эса қишлоқ хўжалиги хомашёсига бўлган талаб-эҳтиёжларини қондиришда аграр соҳа катта аҳамият касб этади. Шу сабабдан қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, жумладан унинг янги самарали хўжалик юритиш шаклларни жорий қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини кенгайтириш, бу борада вилоятларнинг салоҳиятини юксалтириш муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ушбу ишнинг асосий мақсади - Сурхондарё вилоятида фермерчиликни ривожланишининг географик хусусиятларини тадқиқ этишдан иборатдир.

Ҳозирги кунда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида асосий учта қишлоқ хўжалик субъектлари(корхоналар)ни фаолият юритишини кўришимиз мумкин. Булар фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги корхоналаридир.

Жаҳон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, мамлакатимизда ҳам фермерчиликни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотининг 32,9% (2017) фермер хўжаликлари ҳиссасига тўғри келади. Шу йили Ўзбекистон бўйича фермер хўжаликларига бириктирилган ер майдони 5806,2 минг гектарни ташкил қилиб, шундан экин майдонлари 3137,8 минг гектарга тенгдир. Бу даврда фермер хўжаликлари томонидан 15646,1 млрд. сўмлик қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқилган.

Фермер хўжаликлари ҳиссасига Ўзбекистонда етиштирилаётган ғалланинг 85% дан кўпроғини, пахта ялпи ҳосилининг деярли ҳаммаси тўғри келади. Шунинг билан бирга уларнинг мева, сабзавот, чорва маҳсулотлари етиштиришдаги улуши ҳам сезиларлидир.

2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва оптималлаштиришга алоҳида эътибор қаратилган. Пахта ва бошоқли дон майдонларини қисқартириш, кўп тармоқли фермер хўжаликларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш, фермер хўжаликлари экин майдонларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ер эгаларининг даромадини кўпайтириш, халқимизни арзон, табиий ва сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш кўламини янада кенгайтириш устувор вазифа сифатида белгиланган. Бу борада Президентимизнинг 2017 йил 9 октябрдаги "Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги



фармони муҳим аҳамият касб этади.

Сурхондарё вилояти мамлакатимизнинг энг жанубида жойлашган, ўзига хос табиий-иқлим ресурсларига эга ҳамда аграр салоҳияти кучли шаклланган вилоятларидан биридир. Мазкур вилоят мамлакатимизнинг 4,5 % ҳудудини ва 7,5 %дан кўпроқ аҳолисини ўзида мужассам қилган. Унинг ялпи ҳудудий маҳсулотдаги улуши кам - 4,1%ни ташкил қилади холос. Аммо шуни таъкидлаш жоизки, вилоятнинг агроиқлим шароитларининг қулайлиги, қўшни вилоятларга нисбатан сув билан бирмунча яхши таъминланганлиги қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун кенг имкониятлар яратади.

Сурхондарё вилоятида 2019 йил маълумотларига асосан 9 минг 346 фермер хўжалиги фаолият юритмоқда (қуйидаги жадвалга қаранг). Шулардан 3543 та фермер хўжалиги пахта ва ғалла етиштиришга, 2318 та фермер хўжалиги мева ва узумчиликка, 40 дан ортиқ фермер хўжалиги сабзавот-полизчиликка ихтисослашган. Шунингдек чорвачилик соҳасида 844 та фермер хўжалигида чорва моллари, 25 тасида паррандалар, 150 тасида балиқчилик ва 20 га яқин фермер хўжаликларида асалари етиштирилади. Вилоят қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари вилоят аҳолисининг талаб-эҳтиёжларини қондиришга ва бир қисми экспортга чиқарилади.

Сурхондарё вилояти фермер хўжаликларини тармоқлар бўйича тақсимланиши, мингта

Жами фермер хўжаликлари сони	Шу жумладан:						
	Пахтачилик ва ғаллачилик	Мева - узумчилик	Сабзавот-полизчилик	Чорвачилик	Паррандачилик	Балиқчилик	Асалари ичилик
9346	3543	2318	40	844	25	150	20

Сурхондарё вилоятида сўнги йилларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришнинг салмоғи ортиб бораётганини кўрға ташланади. 2016 йил бошида вилоятда ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми 8737,2 млрд. сўмни ташкил қилган бўлса, ушбу рақам 2017 йилга келиб 11608,1 млрд сўмни, 2018 йилга келиб эса 15046,2 млрд сўмлик қишлоқ хўжалиги маҳсулотини ташкил қилган, бундан кўришимиз мумкинки сўнги йилларда қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажмининг ортиб бориши кузатилади.

Маълумки, Сурхондарё вилояти ўзининг жойлашган ўрни, ер юзаси тузилиши (рельеф), агроиқлим ресурслари салоҳиятининг катталиги билан республикамизнинг бошқа вилоятларидан ажралиб туради. Унинг ғарб, айниқса шимол ва шарқ томондан тоғлар билан ўраб олинганлиги, иссиқ жануб томонга очиқлиги ҳам қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга, унинг ҳудудий таркибини шаклланишида катта рол ўйнайди. Вилоятнинг Бойсун, Сарийосиё каби тоғли қишлоқ туманлари кўпроқ тоғ-яйлов чорвачилигига ихтисослашган бўлса, вилоят ҳудудининг шимолидан жанубга томон оқиб ўтувчи Сурхондарё дарёси атрофидаги ҳудудлар, шунингдек янги ўзлаштирилган Шеробод чўллари ҳудудлари, жанубда эса Амударё бўйларида жойлашган қишлоқ туманлари фермер хўжаликлари кўпроқ пахтачилик, ғаллачилик, боғдорчилик, сут-гўшт чорвачилигига ихтисослашган.



Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, ер ва бошқа улкан агроиқлим ресурс салоҳиятига эга бўлган Сурхондарё вилоятида фермер хўжалиklarининг ривожланиши энг аввало мавжуд табиий ресурс салоҳиятидан самарали фойдаланиш билан бирга интенсив товар қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга эътиборни кучайтириш билан чамбарчас боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. Т.: Университет. - 2014.
2. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (қишлоқ жойлар географияси). Т.: Фан ва технология. - 2009.
3. Сельское хозяйства Узбекистана, 2017. Стататистический сборник Госкомстата РУз. - Т., 2017.
4. Интернет сайти: [кутибхона.уз](http://кутибхона.уз) ба бошкалар.



## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI.

**Xudoyberdiyeva Nargiza Arabboyevna,**  
**Namangan viloyat To'raqo'rg'on tuman**  
**6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab**  
**Geografiya fani o'qituvchisi**  
**Telefon: +998912810829**  
**hudoyberdievanargiza1982@gmail.com**

### *Annotatsiya*

*Maqolada umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarga bilim berish, ularning bilish qobiliyatini rivojlantirish, tarbiya berish kabi muhim vazifalar hal qilinadi. Ushbu masalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, ularni o'quv jarayoniga tadbiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muammolarni yechimi ifodalangan.*

### *Kalit so'z*

*Geografiya, innovatsiya, "Bor ekanda" usuli, "Men kimman" o'yini, "Geografik tavsif" usuli, zamonaviy axborot texnologiyalari*

Bugungi kunda mamlakatimizda limtizimida o'quv-mashg'ulot va darsjarayonlarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan kengfoydalanilmoqda. Bu bejizemas, albatta. Chunki ta'lim shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan o'qituvchi-pedagogni o'zoldiga qo'ygan maqsadga - hartomonlama yetuk shaxslarni tayyorlashga erisha oladi.

"Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" - deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

Respublikamizda barcha sohalarda turli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda, ta'lim-tarbiya jarayoni markazida o'quvchining betakror ichkidunyosiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Geografiya fanini o'qitishda sifat va samaradorlikka erishishda zamonaviy usullardan foydalanish - o'qituvchidan ijodkorlik, yuksakmalaka, kasbiy mahorat bilan birga ijodiy izlanuvchanlikni talab qiladi.

Chunki o'quvchi darsni tushunmasa, o'zlashtiraolmasa, u uchun dars murakkab jarayonga aylanadi. Psihologlarning fikricha o'quvchi darsni dastlabki 17 daqiqasini yaxshi qabul qilar ekan. Zero dars daturli usullardan foydalanilishi uning diqqatini 1-2 daqiqadan so'ng yana jamlaydi. Bu maqolamda geografiya fanidan innavatsion texnologiyalar asosida o'qitishning samarali usullarini ayrimturlarini ko'rsatib o'tmoqchiman: 5-sinflarda "Shamollar" mavzusini o'tayapmiz, o'quvchilarda shamol haqida tasavvur hosil bo'lishi uchun ularga soda va qulay bo'lgan misollardan keltirish kerak. O'quvchida shamol haqida ilk tushunchani berishda, daftarni havoda yurgizamiz, shunda havoning gorizantal harakati hosil bo'ladi. Bu jaroyonga shamoldey ilishini tushuntiramiz va darsni o'tishda davom etamiz

5-sinflarda " Quyosh, oy va yulduzlar" 6-sinflarda Materiklarni o'rganishda

"Bor ekanda" usuli ham o'quvchini diqqatini jamlaydi: "Birborekan, bir yo'qekan, qadim o'tgan zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni podshoh o'z vazirlari bilan sayohatga chiqibdi. Yo'l yuribdi yo'lyursa ham mo'l yuribdi bir joyga borganda



charchab uxlab qolibdi. Tun yarmida uyg'onib osmonga qarasa hech qanday yulduzlar turkumlari ko'rinmas emish.

Aytinglarchi o'quvchilar podshoh qayerga borib qolgan?

Bu usul orqali o'quvchilar qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishadi.

O'quvchi ma'ruza eshitganda 5%, o'qib o'rganganda 10%, didaktik o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, tahlil va muhokama qilganda 75% o'zlashtirishi aniqlangan.

Barcha sinflarda "Men kimman" o'yini ham yahshi natija beradi.

-Men dunyodagi eng baland tog' -Himolayman;

-Mening eng baland nuqtam-Jamolungma cho'qqisi bo'lib - 8848m;

-Men Yevro osiyomaterigida joylashganman□

Yoki -"Men O'rta Osiyolikman" 1004-1088-yillarda yashab o'tganman. Janubiy-g'arbiy Osiyo va Shimoliy-sharqiy Afrikaga sayohat qilib, juda ko'p geografik ma'lumotlar to'plaganman. Yetti yil davom etgan ikkita sayohatim davomida 15 ming kilometrdan ortiq yo'lni bosib o'tganman.

Men kimman? (NosirXisrav)

"Geografik tavsif" usuli.

Geografiya o'qituvchisi sifatida hammamiz har bir hududga berilgan tavsifni to'g'ri yoki noto'g'ri bayon etilganligini darhol sezamiz. Dars davomida ma'lum hududga geografik tavsif berib turgan o'quvchi hatosini o'z o'rnida to'g'rilab boramiz. Quyidagi jumboqli tavsifayni manashu muammoni bartaraf etishimizga ko'mak beradi.

Masalan: Afrika materigiga umumiy ta'rif:

Afrika dunyoda kattaligiga ko'ra qit'alarorasida Yevroosiyodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Maydoni 30mln 300ming km. kvga teng. Materikda tog'lar katta maydonlarni egallagan. Yo'l qo'yilgan xatolar va ularning to'g'ris hakli

1. Yevroosiy qit'a emas , materik. U Amerika va Osiyo qit'alaridan keyin uchinchi o'rinda turadi.

2. Materikda tog'lar emas tekisliklar kattamaydonni egallaydi.

3. Kongo daryosi g'arbiy emas, sharqiy yarim sharda joylashgan.

4. Sayyoramizda cho'llar maydoniga ko'ra Afrika birinchi o'rinda tursada ,qurg'oqchilligi jihatidan u Avstraliyadan keyin turadi.

Geografiya fanini o'qitishda "Afsona va haqiqat" usulidan foydalanilsa ham dars yanada yaxshi samara beradi. Masalan, 9-sinflarda "AQSh davlatiga "Tornado"shamoli" juda ko'p talafotlar keltirishiga qaramay, xalq ushbu shamoldan minnatdor bo'lib kelmoqda" deya chalg'ituvchi ma'lumot yozilgan savol berasiz. O'quvchi ushbu savolga shunday javob berishi kerak bo'ladi:

- Hozirgi kunda biz fan texnika asrida yashayapmiz. Bu davrda har bir fanni kompyuter texnologiyalarisiz tassavur etish qiyun. Shujumladan geografiyani ham.Masalan Rustam Abdiyevning Google Earth Win yordamchi dasturidan foydalanib "O'z joyingni top" o'yinini o'tkazish mumkin. Bu dasturda ishlashning afzalligi o'quvchilar dars davomida faqat harita bilan ishlamasdan balki kompyuter gadasturo'r natilgandan so'ng o'zining qishlog'Idan tortib yer yuzini hohlagan nuqtasini ko'rish mumkin.

Geografiya fanini o'qitishda innavasion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarda mavzular yuzasidan bilim , ko'nikma va malakalar hosil bo'lishida , o'tilgan mavzu yahshi samarali bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Geografiyani o'qitish metodikasi .

2.Milliy Ensiklopediya





## GEOGRAFIYA DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH.

**Xudoyberdieva Xolida Raxmanovna**  
**Sirdaryo viloyati Guliston tumani 3-maktab**  
**geografiya fani o'qituvchisi**  
**Telefon: +998994791868**  
**rachmonova98@gmail.com**

*Annotatsiya: ushbu maqola geografiya darslarida turli xil ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanishning qulayliklari va afzalliklarini qiqacha bayonidir. Ko'rgazmli vositalar orqali dars tashkil etish o'quvchilarning tasavvuri, mantiqiy fikrlashi va dunyoqarashini boyitadi.*

*Kalit so'zlar: ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar, ta'lim texnologiyalari, axborot texnologiyalari, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.*

Jamiyatda insonlarining, xususan maktab o'quchilarining dunyo qarashiga ommaviy axborot vositalari katta ta'sir o'tkazadi. Radio, televedenie, matbuot, Internet bugungi kunda insonga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayorlash milliy dasturi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bajarish va uni hayotga tadbiiq qilish asosida ta'lim-tarbiya ishlarini shunday ko'tarishimiz zarurki, u barcha yoshlarimizning chuqur va puxta bilim olishlarini, kerakli malaka va ko'nikmalarni hosil qilishlarini ta'minlay olsin. Bu borada davlat ta'lim standartlariga muvofiq ijodiy izlanish, o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, fanlarning yutuqlaridan foydalanish, ilg'or tajribani ko'lamli ravishda amalga oshirish va yanada samarali davom ettirish talab qilinadi. Bularning hammasini amalga oshirish uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "□buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar haqida gapirar ekanmiz, ertangi kunimiz uchun, bolalarimiz, farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, fidoyilik ko'rsatish - bu barchamizning muqaddas burchimizdir, desam, o'ylaymanki, shu zalda o'tirgan insonlar, kerak bo'lsa, butun xalqimizning fikrni ifoda qilgan bo'laman"

Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'quv jarayonida turli xil bilim manbalaridan foydalaniladi. Geografiya fanini o'qitish dasturi bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialidan tashqari turli manbalardan ham foydalanish mumkin. Berilayotgan bilimlar o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirishi uchun aniq bir pedagogik va metodik sharoitlar bo'lmog'i lozim. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni bilish, o'zlashtirish va kundalik hayotda qo'llay olish jarayonini tashkil qilish lozim. O'quvchilar bilim faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiradi:

- tinglash;
- aytilgan geografik ma'lumotlarni eslab qolish;
- o'rganilgan geografik ma'lumotlarni tasavvur qilish;
- xarita, atlas, globus ma'lumotlarni qiyoslay olish;
- kuzatish va h.k

"O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", -- degan edi mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy. Bu juda haq gap. Bayon qilinayotgan o'quv materiallarini o'z ko'zi bilan ko'rish o'quvchilarda katta qiziqish hosil qiladi: ijodkorlik va faollikni oshiradi, darsni mazmunli qiladi. Texnika vositalari, ko'rsatmalilik yordamida tashkil etilgan har bir geografiya darsi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, geografik obyekt va hodisalarni bir



- biri bilan taqqoslash, o'tilgan mavzuni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'quvchilarda tasviriy malaka shakllanadi. Ko'rish xotirasi, mo'ljal olish qobiliyati hamda obrazli tasavvurlar shu bilan birgalikda kombinatsiyalash xususiyatlarini rivojlantiradi. Texnika vositalar, ayniqsa, ovozli ekran vositalari o'quvchilarda geografik tasavvur hamda tushunchalarni qisqa vaqt ichida shakllantirishga imkon beradi. Bu vositalar geografik obektlar va hodisalarning o'ziga xos tomonlarini ochib berib, ularning o'ziga xosligini o'quvchilarga tushunarli tarzda ko'rsatilishini hamda ta'limning ilmiyligi, tushunarliliigi ta'minlaydi. Texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning geografik bilim doirasini kengaytiradi, tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq ochib beradi. Tabiatda juda tez yuz beradigan yoki aksincha vaqt bo'yicha juda cho'zilgan turli tabiat hodisalari va jarayonlarini namoyish qila oladi. Masalan, 5-sinflarda yerning ichki tuzilishi, okean chuqurligi, atmosferaning yuqori qatlamlari mavzularini texnik vositalar yordamida ko'rsatish o'quvchilarda yerning paydo bo'lishi haqidagi tasavvurlarini rivojlantiradi va oson ushbu mavzularni oson tushunib o'zlashtirish imkonini beradi. Texnik vositalar orqali berilayotgan ma'lumotlar yordamida o'quvchilar meteorologik stansiyalarda, turli tabiat zonalarida va respublikamizning iqtisodiy - geografik rayonlari va dunyo mamlakatlarida bo'lishni tasavvur qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini turmush, xalq xo'jaligi, ijtimoiy - siyosiy hayotning hozirgi masalalari va xalqaro yangiliklar bilan bog'lay oladilar. Kasblar haqidagi tasavvurlari rivojlanadi. Vatanimizning tabiiy boyliklari, turli - tuman tabiat manzaralari o'quvchilarda faxrlanish, iftixor, milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otadi. Geografiya fanini o'qitishda darslarni hozirgi kun voqealari bilan bog'lab olib borish talab qilinadi. Ayniqsa, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida IX sinflarda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" xalq xo'jaligining tarmoqlariga tavsif berishda, mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy o'rniga baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq xo'jaligida xalqaro hayotda yuz berayotgan kundalik o'zgarishlar ta'lim jarayonida, kunlik matbuot materiallari bilan bog'liqlikda foydalanib borilsa, o'quvchilar so'nggi voqealar to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lishadi. Geografiya darslarida texnik vositalardan o'z o'rnida foydalanilsa, geografiya kursini o'qitishda quyidagi didaktik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkoniyat bo'ladi. Texnik vositalardan foydalanish o'qituvchining mehnatini yengillashtiradi, sinflar kesimida murakkablashib borayotgan geografik bilimlarni o'quvchilarga ancha qisqa muddatda yetkazish imkonini yaratadi. Ta'limning samaradorligi oshadi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish uchun sarflangan vaqt qisqaradi va darsda ta'limning boshqa metodlaridan foydalanishga, o'quvchilar bilan individual ishlashga qulay sharoit yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida turli xil ko'rgazmali qurollar, ta'limning texnik vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Agar o'quvchi bilim olishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom hamda teran fikrlar, qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilim olish jarayonida muvaffaqiyatlarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent "O'zbekiston" 2010 80b.
2. Azizxo'jaeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" -T.: 2003 - 174 b
3. L.M.Pancheshnikova. Metodika obuchniya geografii v sredney shkole pod red. Moskva. Prosvetshenie. 1998 g.
4. Qurbaniyazov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Urganch. 2001 y.
5. Qurbaniyazov R. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakl va metodlari. Toshkent. 1993 y.



## ТАБИЙ ГЕОГРАФИК МУҲИТ ВА РЕСУРСЛАРГА ИНСОН ХЎЖАЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ТАЪСИРИ

**Ўралов Бахтиёр Кулсоатович**

**Ангор тумани 13-ўрта мактаб география фани ўқитувчиси**

**Телефон: +998937637250**

**porturodov.oibek@mail.ru**

**Эшмуродова Фарида Хусановна**

**Термиз тумани 20-ўрта мактаб география фани ўқитувчиси**

**Телефон: +998937967574**

**porturodov.oibek@mail.ru**

*Аннотация: Ушбу мақолада табиий географик муҳит, ландшафтлар ва табиий ресурсларга антропоген омилларнинг таъсири ва ушбу таъсирлар натижасида юзага келаётган геозкологик муаммолар, уларнинг юзага келиши ва оқибатлари ҳақида сўз юритилади.*

*Калит сўзлар: табиий муҳит, ресурс, хўжалик фаолият, инсон, географик шароит, комплекс, компонент.*

Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ва атроф табиий муҳит ҳолатининг ўзгариши ўртасида ўзаро чамбарчас алоқалар мавжуд. Ижтимоий ишлаб чиқаришнинг ривожланишига боғлиқ ҳолда инсон фаолиятининг табиатга таъсири ва табиий ресурслардан фойдаланиш даражаси узлуксиз ошиб, уларнинг салбий оқибатлари миқёси тобора хавфли тус олмоқда. Бу шароитда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг барча табиий-экологик омилларни, табиат-жамият ўртасидаги ўзаро алоқаларининг сабаб-оқибатлари занжирини тўғри тушуниш ва шу асосда инсон хўжалик фаолиятининг экологик-иқтисодий қонуниятлари талабларга мос келишини белгилаш муҳим аҳамиятга эга.

Табиий географик шароитлар - инсон хўжалик фаолияти формуласи табиат билан жамиятнинг ўзаро таъсир этиш муаммосини бизга зарур бўлган географик жиҳатларини ўзида акс эттиради [1].

Табиий муҳит ва ресурсларга инсон хўжалик фаолиятининг таъсири ҳозирги кунда беқиёсдир. Инсоният пайдо бўлган даврдан бошлаб табиий комплексларга маълум миқдорда таъсир этиб келди ва уни кучли даражада ўзгартирди. Олимларнинг таъкидлашича Ер шари қуруқлигининг 55% ортиқроқ қисми маданий ландшафтларга айланган.

Барқарор табиат комплексларни бунёд қилишда ландшафтнинг кўп элементлиги муҳим омилдир. Бир хил манзарали маданий ландшафтлар, масалан, уфқдан-уфққа чўзилиб кетган пахта далалари ёки бир хил дарахт ўсувчи мевали боғлар беқарор бўлади. Об-ҳаводаги озгина ўзгариш ёки айрим касаллик ва зараркундалар бундай ландшафтларни бирданига хароб қилиши мумкин. Шуларни ҳисобга олиб, маданий ландшафтлар бунёд этилаётганидан унинг кўп элементли бўлишига ҳамда кўпроқ маҳаллий элементлардан фойдаланишга эътиборни қаратиш зарур.

Инсон ўзининг хўжалик фаолияти давомида табиий ресурслардан фойдаланар экан, географик компонентларнинг ташқи ва ички алоқадорликлари, зонал ва баландлик йўналишдаги доимий боғлиқликлари, ландшафт тизимларидаги модда ва энергия алмашилиш баланси, ҳар турдаги ландшафтларнинг биологик маҳсулдорлигига доир маълумотларга эга бўлиши мақсадга мувофиқдир. Чунки табиатдан фойдаланиш жараёнида инсон томонидан йўл қўйилган ҳар қандай



хато антропоген ва табиий ландшафт комплексларига салбий таъсир кўрсатиб, улардаги тарихий шаклланган экологик мувозанатни бузилишига олиб келади ва экологик вазиятни кескинлаштиради ҳамда макон ва замонда динамик ривожланиб нафақат барча турдаги геосистемаларнинг ҳолатига салбий таъсир ўтказди [2].

Инсоннинг ҳўжалик фаолияти айниқса иқлимга катта таъсир кўрсатади. Саноатнинг ривожланиши, шаҳарларнинг кенгайиши, қишлоқ ҳўжалиги майдонлари ҳосил қилиниши натижасида ер шарининг иқлими анча ўзгарди. Айниқса, атмосферага чиқарилаётган турли газлар ва чиқиндилар таъсирида кейинги юз йил давомида ер шари иқлими деярли 100С га ортди. XX аср охиридан XXI аср охиригача бўлган даврда сайёрамиздаги ҳароратнинг ортиши 2,3 даражадан 6 даражагача ташкил этиши таҳмин қилинмоқда.

М.И. Будико (1974) фикрига кўра ер шари атмосфера ҳавосида чанг миқдорининг ортиб бориши натижасида қуёш нурларини ер юзасига етиб келишини маълум даражада камайтиради ва бунинг натижасида ер юзасида ҳарорат ўртача 0,5° пасаяди.

Табиат комплексларининг барқарорлиги миллионлаб йиллар давомида дунё океани билан қуруқлик ўртасидаги муносабатлар натижасида сақланиб келди. Бу муносабатлар яъни модда ва энергия алмашилиш жараёнларини ҳаракатга келтирувчи кучлар ички ва ташқи кучлардан иборат бўлиб, ички кучлар ер қатламларининг энергияси таъсирида пайдо бўлади ва ер пўстида, ернинг ички ва юқори қатламларида фаолият кўрсатади. Ташқи кучларнинг асосини эса қуёш энергияси ташкил этади. Қуёш энергияси туфайли атмосферадаги жараёнлар содир бўлади, табиатдаги катта ва кичик сув айланиш доирасида сувлик ва қуруқлик ўртасида намлик алмашуви жараёнлари ҳам жуда катта энергия ҳисобига рўй беради. Бу жараён туфайли моддалар дам океанга, дам қуруқликка ўтади. Шундай экан табиат комплекслари барқарорлигини ўзгаришига модда ва энергия алмашинуви жараёнларининг бузилиши ҳам катта таъсир кўрсатади [3].

Сайёрамизда айна пайтда кўмир захираси 200 йилга етади, аммо ундан назоратсиз фойдаланиш дунё иқлимга ҳалокатли таъсир қилиши шубҳасиз. Чунки бир тонна кўмир ёқилганда, атмосферага қарийб 2 тонна карбонат ангдрид газини чиқариб ташланади. Карбонат ангдрид газини эса иқлимни ўзгартиради.

Йилдан-йилга музликлар майдони қисқариб, бормоқда. Тахминан 40 йилдан сўнг миллионлаб кишилар учун ичимлик сувининг манбаи бўлган Ҳимолай музликлари буткул эриб кетиши мумкин. 50 йилдан сўнг Гренландиядаги музлик эришини тўхтатишнинг иложи бўлмай қолади, аср охирига бориб, сайёрамиздаги жонзотларнинг ярми учун манзил-макон саналган Амазония тропик ўрмонлари чўлга айланиши мумкин [4].

Техноген жараёнлар таъсирида карьерлар, очиқ ва ёпиқ шахталар, кон ва руда уюмлари техноген ландшафтларнинг салбий кўринишларини ҳосил қилади. Бундай ҳудудларни бузилган (ноқулай) ерлар ва ўзгартирилган (шартли қулай) ерларга ажратилади. Бузилган ерлар қишлоқ ҳўжалигида фойдаланиш учун яроқсиз ҳолга келган, рельефи ҳам бир мунча ўзгарган гидрологик ҳолати ёмонлашган техноген ҳудудларни ўз ичига олади. Бундай ҳудудларни биринчи тоифаси деформацияга учраган ерлар бўлиб, механик сабабларга кўра бузилган карьерлар, жарликлар, шахталар, чиқинди уюмлари ташкил этади. Деградацияга учраган ерлар эса иккинчи тоифани ташкил этиб кимёвий ва физик ифлосланиш, қурғокчилик, ботқоқланиш туфайли зарарланган майдонлардан иборат.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлашимиз лозимки, инсон фаолиятининг географик қобикдаги табиий жараёнларга, географик муҳитга бўлган таъсирининг салбий ва ижобий оқибатларини ўрганиш, бу оқибатларни олдиндан айтиб бериш,



геофизикавий, геокимёвий, математик, экологик методларни қўллашга бўлган эътибор кучайди, янги экологик йўналиш юзага келди. Эндиликда табиат ва жамият ўртасидаги экологик муносабатлар жамият аъзоларининг табиий ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланишни, инсон фаолиятининг турли жабҳаларида табиатга зиён-захмат етказувчи барча омилларга қарши курашиши, теварак-атроф муҳофазасига асосланган ҳаёт тарзига амал қилишни тақазо этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 41-жилд. Т., 2013 27-б.
2. Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 55-жилд. Т., 2019 30-б.
3. П.Баратов "Табиатни муҳофаза қилиш ва ўзгартиш". Т., 1984.
4. А.А.Рафиқов "Геоэкологик муаммолар", "Ўқитувчи". Т., 1997.

**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"**  
**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(25-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.05.2020

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000